



# SHARL PERRO

ZOLUSHKA




821  
P33



# SHARL PERRO

ZOLUSHKA



  
YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2019

**UO'K: 821.133.1-343**

**KBK: 84(4Fra)**

**P-33**

**Perro, Sharl**

Zolushka: ertaklar. Sharl Perro / Tarjimonlar S.Ismoilova, Sh.Minovalov, A.Akbar, T.Alimov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2019. – 64 b.

**ISBN 978-9943-20-328-0**

Inson orzular og'ushida yashaydi. U bolaligidanoq olam bilan tanishar ekan, uni o'zicha idrok etadi. Olamni idrok etish va voyaga yetish jarayonida ertaklar ezgulik urug'lari vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, butun dunyo bolalarining sevimli ertakchisi Sharl Perroning «Ona g'oz ertaklari» nomi ostida jamlangan, siz-u bizning mehrimizga sazovor bo'lgan mazkur kitobchani nashrga tayyorladik.

Zehnli va qiziquvchan farzandlarimiz qalblariga yanada ko'p ezgu orzular va umidlar baxshida etish umididamiz.

**UO'K: 821.133.1-343**

**KBK: 84(4Fra)**

### **Tarjimonlar**

S.Ismoilova, Sh.Minovalov,  
A.Akbar, T.Alimov

**ISBN 978-9943-20-328-0**

© Sharl Perro, «Zolushka». «Yangi asr avlod», 2019-y.

## ZOLUSHKA

**B**ir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamon-da badavlat va oqsuyak bir odam o'tgan ekan. Uning xotini o'lib, ikkinchi marta uylanibdi. Ikkinchi xotini o'taketgan bag'ritosh va kekkaygan xotin ekan. U xotinning ikki qizi bor ekan, ularning ham fe'l-atvori onasining fe'l-atvoriga o'xshar ekan: dimog'dor, zahar ekanlar. Erining nihoyatda yoqimtoy va beozor bir qizi bor ekan, u o'zining juda oqko'ngil marhum onasiga o'xshab ketar ekan.

O'gay ona birinchi kundanoq qiz bechoraga o'z zahrini socha boshlabdi. O'gay qizining yo-qimtoyligini ko'rib, o'gay onaning jon-poni chiqib ketibdi. Bu muloyim qiz oldida o'z qizlarining juda ham yaramas ekanligi darrov bilinib qolibdi.

O'gay ona uydagi eng og'ir va iflos ishlarning hammasini o'gay qiziga yuklabdi: u doim idish-to-voq yuvish, zinapoyalarni tozalash, injiq o'gay onasi va uning tantiq qizlari yotoqxonalarining polini yuvib, tozalash bilan band bo'libdi. Qiz bechora kechalari cherdakda, qoq to'shakda yotar ekan. O'gay opalari esa shipga tegadigan oynalar qo'yil-gan parket polli xonalarda, momiq to'shaklarda uxlar ekanlar.

Bechora qiz hammasiga chidar, otasiga aytish-dan qo'rqrar ekan; bordi-yu aytadigan bo'lsa, otasi o'dag'aylab, uning o'zini qattiq urishar ekan, chunki yangi xotinining gapidan chiqmas ekan-da! Bechora qiz, ishlarini tamomlagandan keyin, burchakdagi o'choq oldiga borib, kul ustiga o'tirar ekan, shuning uchun ham o'gay ona-ning katta qizi unga Isqirt qiz deb nom bergen ekan. Ammo, singlisi opasiga o'xshagan qo'pol - zahar emas ekan. U qizni Zolushka<sup>1</sup> deb atabdi. Zolushka eski ko'yvak kiygan bo'lsa ham, yasangan-tusangan opalariga qaraganda yuz mar-ta yoqimtoy ekan.

Kunlardan bir kun shahzoda katta bazm ber-moqchi bo'lib, shu bazmga mamlakatning hamma badavlat kishilarini taklif qilibdi. Shular qatorida Zolushkaning opalari ham taklif qilinibdi. Shundan keyin, ular shu qadar sevinib, o'zlariga yarashadi-gan kiyim-kechaklar topishibdilar. Bu bilan Zolush-kaga yana ish ko'payibdi: o'gay opalarining yub-kalarini dazmollashi, yoqalarini kraxmallashi kerak ekan. Opalari hamma vaqt ko'zguga qarab, zo'r berib yasanishnigina o'ylashibdi.

- Men bazmga zarli qizil duxoba ko'ylagimni kiyaman, - debdi katta opasi.

- Men bo'lsam, - debdi kichik opasi, - oddiy ko'ylagimni kiyaveraman. Lekin ko'ylagim ustidan oltin gulli, brilliant to'g'nog'ichli nakidkamni<sup>2</sup> tash-lab olaman. Bunaqasi har kimda ham bo'laver-maydi!

<sup>1</sup> «Qulqiz» degan ma'noda.

<sup>2</sup> Nakidka - yelkaga tashlab yuriladigan yengsiz kiyim.

Ular eng yaxshi tikuvchiga qo'sh burmali chepets<sup>3</sup> buyurishibdi, juda qimmatbaho tasmalar sotib olishibdi. Zolushkaning kiyim tanlashga didi yaxshi bo'lganligi uchun, undan har bir masalada maslahat so'rashibdi. Zolushka opalariga jon dili bilan maslahat beribdi, hatto: «Sochlaringizni tarab qo'yaymi?» deb ham so'rabdi. Bunga opalari suyunib rozi bo'lishibdi.

Zolushka opalarining sochlarni tarab turganda, ular Zolushkadan:

- Rostini ayt-chi, Zolushka, sen ham bazmga borishni xohlarmiding? – deb so'rashibdi.
- Voy opajonlarim, meni hech mazax qila ko'rmang! Axir meni u yerga kiritisharmidi?
- Rost-da! Agar bu isqirtni bazmda ko'rib qolishsa bormi, kulaverib hammaning ichagi uzilardi!

Agar boshqa qiz bo'lganda, bu gaplar uchun ularning sochlarni jo'rttaga xunuk qilib tarardi, lekin Zolushka oqko'ngil bo'lganidan opalarining sochlarni mumkin qadar yaxshilab o'rib, tarabdi.

Opalari xursand bo'lganliklaridan hovliqishib, ikki kun hech narsa yeishmabdi, bellarini xipcha qilib bog'lab, oyna oldida gir aylanib yurishaveribdi.

Nihoyat, zoriqib kutgan kunlari kelibdi. Opalari bazmga ketishibdi. Zolushka esa ularning orqlaridan uzoq vaqt qarab qolibdi. Opalari tushgan kareta ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyin, u achchiq-achchiq yig'labdi.

Uning yig'layotganini bir rahmdil sehrgar kampir ko'rib qolib: «Nimadan xafa bo'layapsan?» – deb so'rabdi.

<sup>3</sup> Ayollarning bir turli bosh kiyimi.

— Men xohlardimki... men ham xohlardimki... — Zolushka o'pkasini tutolmay yig'lab, gapini aytolmabdi.

Lekin buning sababini sehrgarning o'zi darrov fahmlabdi:

— Sen ham bazmga borishni xohlayotgandirsan-a? To'g'rimi?

— Ha, to'g'ri, — deb xo'rsinib-xo'rsinib javob qilibdi Zolushka.

— Mening aytgan gaplarimdan hech chiqmay-sanmi? — deb so'rabdi sehrgar. — Agar gapimga quloq solsang, bazmga borishingga yordam qila-man.

Sehrgar kampir Zolushkani o'z uyiga olib kelib:

— Sen bog'ga chiqib, menga oshqovoq uzib kel, — debdi.

Zolushka yugurbanicha bog'ga chiqib, bitta eng yaxshi oshqovoqni tanlab, sehrgarga olib kelibdi. Lekin Zolushka o'zining bazmga borishi uchun bu oshqovoq qanday qilib yordam bera olishiga hech tushuna olmabdi.

Sehrgar oshqovoqni po'stigacha o'yib, keyin unga sehrli tayoqchasini tekkizib qo'ygan ekan, ko'z ochib yumguncha haligi oshqovoq tilla kare-taga aylanibdi.

Shundan keyin, sehrgar kampir qopqonga qarab unda oltita tirik sichqon o'tirganligini ko'rib qolibdi.

U Zolushkaga qopqonning og'zini sal ochib qo'yishni buyuribdi. Qopqondan sakrab chiqqan har bir sichqonga sehrli tayoqchasini tekkizib qo'yaveribdi. Ko'z ochib yumguncha sichqon chi-

royli otga aylanibdi. Shunday qilib, oltita sichqon o'miga sichqon rangidagi, karetaga qo'shadigan oltita ajoyib ot paydo bo'libdi.

– Kucherni qayerdan topsak ekan? – deb sehrgar o'ylab qolibdi.

– Qani, men borib kalamush qopqonni ko'raychi, biron ta kalamush tushganmikan, – debdi Zolushka, – kalamushni kucher qilish mumkin.

– Ha, rost, – debdi ma'qullab sehrgar, – bor, qara-chi!

Zolushka kalamush qopqonni olib kelibdi, unda uchta semiz kalamush bor ekan.

Sehrgar ularning ichidan eng katta, mo'ylovli bir kalamushni tanlab, tayoqchasini tekkizib qo'ygan ekan, kalamush bir zumdayoq shop mo'ylovli semiz bir kucher bo'lib qolibdi.

Shundan keyin sehrgar kampir Zolushkaga qarab:

– Bog'dagi leyka orqasida oltita kaltakesak yotibdi. Borib shularni menga olib kel, – debdi.

Zolushka kaltakesaklarni olib kelishi bilanoq, sehrgar ularni uqali kiyim kiygan olti malayga aylantiribdi. Ular, bir umr shundan boshqa ish qilmagan malaylardek, epchillik bilan karetaning orqasiga o'tib olishibdi.

– Mana endi bazmga borishing mumkin, – debdi Zolushkaga sehrgar. – Xursandmisan?

– Albatta xursandman? Lekin ustidagi yomon ko'ylagim bilan bazmga qanday qilib boraman?

Sehrgar tayoqchasini Zolushkaga tekkizib qo'ygan ekan, uning ustidagi eski ko'y lagi ham ko'z ochib yunguncha qimmatbaho toshlar qadal-gan va oltin, kumushdan ishlangan ajoyib zarvaraq

libosga aylanibdi. Buning ustiga, sehrgar bir juft billur tuflicha hadya qilibdi. Bunaqa chiroyli tuflilar olamda hech bo'lмаган екан!

Yarqiragan chiroyli kiyimlarni kiyib yasangan Zolushka karetaga tushibdi. Jo'nashi oldidan sehrgar unga soat xuddi yarim kechaga zang urguncha qaytib kelishini qattiq tayinlabdi.

— Agar sen bir daqiqa ham kech qolguday bo'lsang, — debdi sehrgar kampir, — karetang yana oshqovoqqa, otlaring sichqonlarga, malaylaring kaltakesaklarga, zarvaroq kiyiming eski ko'yakka aylanadi.

Zolushka sehrgar kampirga yarim kecha bo'lmasdan saroydan qaytishga va'da beribdi-da, xursand-chilikdan hech yerga sig'may bazmga jo'nab ketibdi.

Noma'lum, lekin juda badavlat bir malika kelganligini shahzodaga xabar qilishibdi. Shahzoda uni kutib olishga shoshilibdi, karetadan tushishiga yordam qilibdi va mehmonlar to'plangan zalga olib kiribdi.

Bular kirishi bilanoq butun zal jim bo'lib qolibdi: noma'lum malikaning husni jamoliga hayron qolib, mehmonlar raqs tushishdan, skripkachilar skripkalini chalishdan to'xtabdilar.

— Bunchayam chiroyli екан-а! — deb chekka-chekkadan hamma shivirlay boshlabdi.

Hattoki eng keksa shoh ham unga qarab hech to'ymabdi, qirolichaning qulog'iga: «Bu yaqin o'rta-da bunaqangi chiroyli va bunaqangi barno qiz ko'rmagan edim», deb shivirlabdi.

Xotinlar bo'lsa, ertadanoq o'zlariga xuddi shunaqa liboslar buyurtirish uchun, uning kiyimlari-

ni diqqat bilan ko'zdan kechirishibdi, lekin xuddi shunga o'xshagan ajoyib gazmollar va chevar tikuvchilar topa olarmikanmiz, deb qo'rqishibdi.

Shahzoda Zolushkani zalning eng to'riga olib borib raqsga taklif qilibdi. Zolushka shunaqangi yaxshi raqs tushibdiki, odamlar uni yana ham yaxshi ko'rib qolishibdi.

Shundan keyin, oradan ko'p o'tmay, har xil shirinlik va meva-chevalar tortilibdi. Lekin shahzoda go'zal malika bilan ovora bo'lib, bironta shirinlikka qo'l ham tekkizmabdi.

Zolushka opalari yoniga kelib, ular bilan muloym gaplashibdi va shahzoda hadya qilgan apelsini ular bilan baham ko'ribdi.

Opa-singillar bu notanish malikaning o'zlariga bunchalik mehribonlik qilganiga juda hayron qolishibdi.

Suhbat eng qizigan paytda, Zolushka soatning chorak kam o'n ikkiga zang urganini birdan eshitib qolibdi-da, tezlikda hamma bilan xayrlashib chiqib ketibdi.

Uyga qaytganidan keyin eng avval sehrgar campingning yoniga yugurib kelibdi-da, unga minnatdorchilik bildiribdi va ertaga yana bazmga borishni xohlayotganini – shahzoda yana kelishini juda ham o'tinib so'raganini aytibdi.

Zolushka bazmda bo'lgan voqealarni sehrgarga so'zlab berayotgan vaqtida, birdan eshik taqillab qolibdi. Kelganlar opa-singillari ekan. Zolushka eshikni ochish uchun chiqib ketibdi.

– Bazmda ancha qolib ketdingiz-a! – debdi Zolushka go'yo uyqudan endi turganday, ko'zlarini ishqalab va tikilib.

Haqiqatan esa opalaridan ajralganidan beri uyqu esiga ham kelmagan ekan.

— Agar sen bazmda bo'lganingda, — debdi opalaridan biri Zolushkaga, — hech zerikmas eding. Bazmga bir malika keldi — biram chiroylik, asti qo'yaver! Dunyoda unaqa chiroyligi yo'q! Biz bilan juda muloyim gaplashdi, bizni apelsin bilan mehmon qildi.

Zolushka xursandlikdan titrab ketibdi. U malikaning ismini so'rabdi. Lekin opa-singillar: «Malikaning ismini hech kim bilmaydi, shahzoda ham shuning uchun xafa. Malikaning kim ekanligini bilish uchun shahzoda har qancha bo'lsa ham berardi», — deyishibdi.

— Balki malika juda ham chiroylidir? — deb kulimsirab so'rabdi Zolushka. — Sizlar xo'p baxti-yorsizlarda? Men ham uni hech bo'lmasa bir marta ko'rsam edi... Opajon, bir yaxshilik qiling, uyda kiyadigan sariq ko'ylagingizni berib turing!

— Topgan gapingni qara-ya! — deb jerkib tashlabdi katta opasi. — Men shu isqirtga ko'ylagimni berarmishman. O'lsam ham bermasman!

Zolushka opasining ko'ylak bermasligini bilar ekan. Bermagani uchun bir jihatdan xursand ham bo'libdi. Bordi-yu, opasi ko'ylagini berguday bo'lsa nima qilardi?..

Ertasiga Zolushkaning opalari yana bazmga ketishibdi. Zolushka ham ketibdi; u, bu safar avvalgidan ham yaxshiroq yasanib olibdi. Shahzoda uning yonidan hech ketmay, qulog'iga har xil yoqimli so'zlarni shivirlabdi.

Zolushka juda ham xursand bo'lib ketib sehrgar tayinlagan topshiriqlarni butunlay esidan chiq-

rib qo'yibdi. U hali soat o'n bir ham bo'lмаган bo'lsa kerak, deb o'ylaganda, birdaniga soat yarim kechaga zang ura boshlabdi. U cho'chib tushib-di-da, o'qday otolib, qushday uchib qochib qolibdi. Shahzoda uning ketidan quvib yetolmabdi.

Zolushka juda shoshganligidan bir poy billur tuflichasini oyog'idan tushirib qo'yibdi. Shahzoda ehtiyyotlik bilan tuflini yerdan olibdi.

Darvozabondan: «Malikaning qayoqqa o'tib ketganligini ko'rmadingmi?» – deb so'rabdi. Darvozabon unga saroydan bir kambag'al qiz yugurib chiqqanligini va u qiz malikaga emas, dehqon qizga ko'proq o'xshab ketganligini aytibdi.

Zolushka halloslaganicha karetasiz, malaylarsiz, o'zining o'sha eski ko'ylagida uyiga chopib kelibdi. Uning egnidagi zebi-ziynat kiyim-kechaklaridan faqt bir poy billur tuflichasi qolibdi, xolos.

Opalari bazmdan qaytib kelganlarida, Zolushka ulardan: «Bazm bugun ham kechagiday qiziq o'tdimi, o'sha sohibjamol malika yana keldimi?» – deb so'rabdi.

Opa-singillar malikaning kelganligini, lekin soat yarim kechaga zang urgandagina qochib qolganligini va qochib ketayotganida oyog'idan bir poy qizil billur tuflichasi tushib qolganligini, shahzoda tuflichani qo'liga olib, bazm tamom bo'lguncha undan ko'zini uzmaganligini aytishib, «ko'rinish turibdiki, shahzoda o'sha tuflining egasi – go'zal malikani juda sevib qolgan ekan», deyishibdi.

Opa-singillar to'g'ri aytgan ekanlar: oradan bir necha kun o'tgandan so'ng shahzoda mana shu billur tuqli qaysi bir qizning oyog'iga to'g'ri kelsa

o'sha qizga uylanaman deb, butun mamlakatga jar soldiribdi.

Shundan keyin tuflini eng avval malikalarga, so'ngra gersoginalarga, undan keyin butun saroy xonimlariga birin-ketin kiydirib ko'ribdilar. Lekin hech kimga to'g'ri kelmabdi.

Billur tuflini Zolushkaning opalariga ham olib borishibdi. Ular o'sha kichkinagina tuflini oyoqlariga kiyish uchun shuncha ko'p urinsalar ham, tuqli hech sig'mabdi.

Zolushka ularning butun kuchlarini sarf etib qilayotgan bu harakatlarini ko'rib, o'z tuflisini tанибди-da, kulimsirab:

- Men ham bu tuflini kiyib ko'rsam bo'ladimi?
- deb so'rabdi.

Opa-singillar javob berish o'miga uni masxara qilib, kulishibdi. Lekin tuflini olib kelgan saroy xodimi Zolushkaga diqqat bilan tikilibdi. U, Zolushkaning juda ham chiroyli ekanini o'z ko'zi bilan ko'ribdi va: «Menga bu tuflini mamlakatdagi hamma qizlarga kiydirib ko'rish kerak», deb farmon bergenlar debdi.

Zolushkani kursiga o'tqazib, tuflichani oyog'iga kiydirgan ekan, tuqli uning oyog'iga loppa-loyiq kelibdi. Opa-singillar juda hayron bo'lishibdi. Lekin, Zolushka cho'ntagidan xuddi shunaqa tuflichaning ikkinchi poyini olib, boshqa oyog'iga kiyganida, opa-singillar tamoman o'zlarini yo'qotib, hayron bo'lib qolishibdi.

Shu orada rahmdil sehrgar kampir yetib kelib, tayoqchasini Zolushkaning eski ko'ylagiga tekkizib qo'ygan ekan, uning egnidagi ko'yak avvalgidan ham dabdabali, yana ham chiroyli libosga aylanibdi.

Bazmga borgan eng go'zal – sohibjamol maliikaning kimligini opa-singil endi bilishibdi! Ular o'zlarini Zolushkaning oyog'iga tashlab «Qilgan gunohlarimizni kechir», deb yolvorishibdi.

Zolushka ularni o'midan turg'izib, bitta-bitta o'pibdi-da: «Gunohlaringizni kechirdim, lekin meni hamma vaqt sevinglar», debdi.

Yasangan Zolushkani saroyga, shahzoda huzuriga olib borishibdi. Zolushka uning ko'ziga avvalgidan ham chiroyli bo'lib ko'rinishdi. Bir necha kun o'tgandan keyin shahzoda Zolushkaga uylanibdi.

Zolushkaning qalbi ham go'zal chehrasiga o'xshab rahmdil, muloyim ekan. U o'gay opalarini o'zi bilan birga saroyga olib ketibdi-da, o'sha kuniyoq ularni ikki saroy amaldoriga turmushga beribdi.

## UYQUDAGI MALIKA

**B**ir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamon-larda bir qirol va qirolichcha yashagan ekan. Ularning farzandlari yo'q bo'lib, bu ahvoldan o'ta tashvishda ekanlar. Qirol va qirolichaning farzand ko'rish ilinjida bormagan qadamjolari, qilmagan davolari qolmabdi, lekin nafi bo'lmasdi. Nihoyat qirolichcha qiz ko'ribdi. Qirol kattakon to'y qilibdi, to'ya mamlakatdagi barcha sehrgar parilarni taklif qilibdilar. Sehrgar parilar o'sha davrdagi odatlariga ko'ra, chaqaloqqa sep o'mida ajoyib fazilatlarni in'om etsinlar deb shu ishni qilishibdi.

Cherkovdag'i cho'qintirish marosimidan keyin hamma qirol saroyiga yo'l olibdi. U yerda sehrgar

parilar uchun ajoyib sovg'alar hozirlab qo'yishgan ekan. Ularning har biriga sof oltindan yasalgan qutichaga solingan, soplari olmos-u gavharlar bilan bezatilgan sanchqi, qoshiq va pichoq taqdim qilibdilar. Hamma dasturxon atrofidan joy olib bo'lay deganda eshik ochilib, marosimga taklif etilmagan qari bir sehrgar kirib kelibdi. Chamasi, ellik yildan beri uni hech kim ko'rmagan va hamma uni tarki dunyo qilib, baland minoraga qamalib olgan, deb o'ylar ekan.

Qirol sehrgar kampirga ham aynan shunday sovg'a keltirishlarini buyuribdi, lekin boshqalarga bo'lgani kabi, sof oltindan yasalgan qutichani topishning iloji bo'lmasabdi. Kampir o'zini kamsitilgan deb o'ylabdi va allaqanday qarg'ishlarni shivirlab ayta boshlabdi. Uning yonginasida o'tirgan parilarning yoshrog'i buni eshitib qolibdi va yaramas yalmog'iz jajji malikaga yomon niyat qilsa kerak, deb o'ylab, uning shum niyatining oldini olish maqsadida hamda eng oxirida so'z olish uchun sekingina darparda orqasiga berkinib olibdi.

Sovg'a berish navbatni sehrgar parilarga kelibdi. Eng yosh pari chaqaloqqa olamda tengi yo'q go'zallik, ikkinchi pari donolarning aqlini, uchinchisi har ishda mohirlikni, to'rtinchi sehrgar raqs tushish san'atini, beshinchisi bulbuldek ovozni, va nihoyat, oltinchi pari barcha musiqa asboblarini bemalol chala olish mahoratini ato qilibdilar. Navbat shum kampirga yetib kelibdi. U qarilik tufaylimi, jahldanmi, boshini silkita-silkita, malikaning qo'liga urchuq kirib ketadi va u olamdan ko'z yumadi, debdi.

Bunday «sovga» hammani qayg'uga solibdi. Saroy ahllari orasida yig'lamagan odam qolmabdi. Shu payt darparda orqasiga berkinib olgan yosh sehrgar pari chiqib kelibdi va baland ovozda shunday debdi:

— Shohim, malikam, tinchlaninglar. Qizingiz o'lmaydi. To'g'ri, ushbu shum niyatni butunlay yo'q qilishga kuchim yetmaydi. Qizingizning qo'liga urchuq kirib ketadi, biroq u o'lmay qolib, chuqur uyquga ketadi va yuz yildan keyin bir shahzoda kelib uni uyg'otadi.

Shum kampirming yovuz bashorati oldini olish maqsadida, qiroq mamlakatda hech kim charx yigirmasin, uyida charx saqlaganlar qatl qilinsin, degan farmon chiqaribdi.

Oradan o'n besh-o'n olti yil chamasi vaqt o'tibdi. Kunlarning birida qiroq hamda qiroliche hordiq chiqarish uchun chor bog'laridan biriga jo'nab ketibdilar. Yolg'iz qolgan malika saroydag'i xonalarni birma-bir ko'zdan kechira boshlabdi va naqd chordoqgacha chiqib boribdi. U yerda qarib, munkillab qolgan bir kampir charx yigirmoqda ekan, negaki u ip yigirmaslik haqidagi qiroq farmonini eshitmag'an ekan. «Bu yerda nima qilib o'tiribsiz, buvijon?» — so'rabdi malika. — «Ip yigirayapman, qizim», — debdi malikani hech qachon ko'rмаган kampir. «Vuy, muncha qiziq, — debdi malika. — Men ham yigirib ko'ray». U biroz shoshqaloq qiz bo'lganidan urchuqni qo'lga olishi bilan qo'lini tilib yuboribdi va hushidan ketib, yiqilib tushibdi.

Bechora kampir dahshatga tushib, odamlarni yordamga chaqira boshlabdi. Har tomondan yugu-

rib kelgan saroy ahllari qizning yuziga suv sepishibdi, sirka hidlatishibdi, qo'llarini uqalab ko'rishibdi, lekin u uyg'onmabdi.

Falokatdan darak topgan qirol sehrgar parilarning bashoratlarini eslabdi. U malikani saroyning eng chiroyli yotoqlaridan biriga, zar va kumush iplar bilan tikilgan shohona o'rindiqlar ustiga yotqizishni buyuribdi. Uyqudag'i malikani farishtalarga qiyoslash mumkin ekan: uyquga ketganligini hisobga olmasa, uning yonoqlari la'ldek, lablari injudek bo'lib qolaveribdi, qizaloqning bir tekisda nafas olishi eshitilib turganligidan, uning hayot ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin ekan.

Qirol toki vaqtি-soati kelguncha, malikani hech kim bezovta qilmasin, deb buyruq beribdi. Malikaning boshiga ushbu falokat tushganida, uni o'lmaydi, balki yuz yil uyquga ketadi, deb bashorat qilgan pari o'n ikki ming chaqirim narida joylashgan Matakan sultanatida ekan. Ushbu mushkulotdan uni oyog'iga tezyurar etik kiyib olgan jinlardan biri ogoh qilibdi va biror soat o'tar-o'tmay, u ikki ajdar qo'shilgan otash aravada saroy hovlisida paydo bo'libdi. Qirol unga peshvoz chiqib, kutib olibdi. Sehrgar pari qirol ko'rgan barcha choralarни ma'qullabdi va ayni paytda, kelajakka nazar sola olish qobiliyatiga ega bo'lganidan, malika ushbu ko'hna qasrda yolg'iz uyg'ongudek bo'lsa, dahshatga tushishi mumkin, deb o'ylabdi va quyidagi choralarни amalga oshiribdi.

Sehrgar pari qirol va qirolichadan boshqa barcha saroy ahllariga: oqsochlar, enagalar, kanizaklar, a'yonlar, oshpazlar, go'laxlar, yugurdaklar,

soqchilar, eshik og'aleri, yasovullar, tungi soqchilar, otxonadagi sayslar va otlar, bahaybat soqchi itlardan tortib, malikaning to'shami ustiga yotib olgan jajji ko'ppakchasi Puffgacha sehrli tayoqchasi ni tegizib chiqibdi. Tayoqcha ularga tegishi bilan vaqt kelib malikaga xizmat qilish uchun barchalari uyquga ketibdilar, kakliklar va bedanalar go'shti tizilgan sixlar-u yonib turgan olov ham tosh qotibdi. Ushbu voqealarning barchasi bir lahzada sodir bo'libdi, negaki sehrgar parilar o'z ishlariga usta bo'lar ekan-da.

Shundan keyin qirov va qiroliche jondan aziz qizlarining peshonasidan ohista o'pib, qasrni tashlab chiqibdilar hamda hech kim qasrga yaqinlasha ko'rmasin, deb farmon chiqaribdilar. Aslini olganda, farmonning ham keragi yo'q ekan, negaki chorak soat o'tar-o'tmas qasr atrofini bahaybat daraxtlar, tikanli maymunjon butalari, chakalaklardan iborat, na inson va na hayvonlar o'ta oladigan quyuq o'rmon o'rab olibdi. Qasr minoralarining kungurador tomlarigina uzoq-uzoqlardan elas-elash ko'zga tashlanar ekan. Sehrgar pari bu ishlarning barchasini malikani hech kim bezovta qilmasin, yomon niyatli kishilar qasrga kira olmasin, deb amalga oshirgani ravshan ekan.

Oradan yuz yil o'tibdi. Kunlarning birida qo'shni mamlakat qirolining o'g'li shu tomonlarda ov qilib yurib, quyuq o'rmon ortidan elas-elash ko'zga tashlanayotgan minoralarmi ko'rib qolibdi va o'tkinchilardan u yerda nima borligini surishtira boshlabdi. Unga hamma har xil javob qaytaribdi. Ba'zi birovlar ushbu ko'hna qasrda arvochlari yashaydi,

desa, boshqa birovlar u yerda ajinalar har tunda bazm quradilar, deyishibdi. Lekin ko'pchilik ushbu qasrda odamxo'r yalmog'iz yashaydi, u bolalarni o'g'irlab kelib, qasming ichiga kirib oladi-da, bemalol ularni pishirib yeydi, hech kim uni ta'qib qila olmaydi, chunki butalar oralab yo'l ochib yurishni undan boshqa hech kim bilmaydi, degan fikmi bildirishibdi.

Shahzoda ushbu taxminlarning qay biriga ishoni shni bilmay turganida, yoshi bir joyga borib qolgan bir dehqon shunday debdi: «Shahzodam, otamdan bu voqeani eshitganimga ellik yildan ko'proq bo'ldi. Uning aytishicha, ushbu qasrda go'zallikda tengi yo'q malika uqlab yotgan mish. Uning uyquisi yuz yil davom etishi va malikani bir shahzoda uyg'otib, unga uylanishi bashorat qilingan ekan».

Bu gaplarni eshitgan navqiron shahzodaning a'zoyi badaniga o't tushibdi. U hech ikkilanmay, ushbu sarguzashtga barham berish taraddudiga tushibdi. Shuhrat qozonish istagi va muhabbat olovi uni haqiqatni tezroq bilishga undabdi. Shahzoda o'rmon tomon qadam qo'ygan ekan hamki, bahaybat daraxtlar, chakalaklar, tikanakzorlar ikki tomonga chekinib, qasr tomon keng yo'l ochilibdi. Lekin shunisi hayratlanarli ekanki, shahzodaning mulozimlaridan hech biri unga hamrohlik qila olmabdi. Negaki, shahzoda o'tgan joyni yana daraxtlar va butalar qoplab olaveribdi. Chunki yosh va oshiq shahzodalar dovyurak bo'ladilar. Shahzoda hech ikkilanmay yo'lida davom etibdi. Qasming hovlisiga qadam qo'ygan zahoti uni o'ta kuchli sukunat va o'lim sharpasi dahshatga solibdi,

negaki har tomonni odamlar va uy hayvonlarining harakatsiz gavdalari egallab olgan va ularni o'lik deb xayol qilish mumkin emas. Ammo shahzoda ayni paytda sepkil bosgan yuzlari va qip-qizil burunlariga qarab turib, shvetsariyalik eshik og'alarini tanib olibdi, qo'llaridagi qadahlarda hali ham sharob qatralari saqlanib qolganligi ularning may ichayotib uqlab qolganliklarining belgisi ekan.

Shahzoda marmar qoplangan hovlidan o'tib, zinadan yuqoriga ko'tarilibdi va soqchilar o'tiradi-gan xonaga kiribdi. Ular miltiqlarini yelkalariga qo'ygan holda, qator turib xurrak otish mashqi bilan mashg'ul ekanlar. U birma-bir a'yonlar va saroy xonimlari bilan to'lib-toshgan xonalarga kiribdi, ularning barchasi, kim o'tirib, kim turib uxlamoqda ekan. Nihoyat, shahzoda devorlariga oltin suvi yogurtirilgan bir xonaga kiribdi. U yerda zar to'shaklar ustida yoshi o'n besh-o'n olti yoshlari atrofida bo'lgan sohibjamol bir qiz ilohiy nur va tarovat taratib uxlamoqda ekan. Shahzoda his va hayajondan titrab-qaqshab qizning yoniga yaqin kelibdi va tiz cho'kibdi.

Shu lahzada sehming kuchi nihoyasiga yetibdi, malika uyqudan uyg'onibdi va shahzodaga eski tanishdek nazar solibdi: «Bu sizmisiz, shahzodam. Uyg'onishimni kutib turganingiz ajoyib ish bo'libdi». Samimiylik bilan aytilgan ushbu so'zлarni eshitgan shahzoda hayajonga tushib, xursandligi va minnatdorligini qanday qilib izhor qilishni bilmay qolibdi. U qizga uni jonidan ortiq ko'rishini aytibdi. Shahzoda va malika bir-birlariga pala-partish so'zlay ketibdilar, bundan ularning muhabbatlari

ziyoda bo'libdi: so'zamollikning oz bo'lishi muhabbatning ziyoda bo'lishiga olib keladi. So'zlashishda, ayniqsa, shahzoda no'noq ekan. Qiz bo'lsa, uzoq uyqusi mobaynida shahzodaga nimalar deyishni yaxshilab o'rganib olgan ekan, mehribon sehrgar malikaga ajoyib tushlarni ko'rsatgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas ekan. Shahzoda va malikaning suhbatlari boshlanganiga to'rt soatdan ko'proq bo'libdi, lekin ular bir-birlariga aytmoqchi bo'lган gaplarning yarmini ham aytib ulgurmagan ekanlar.

Malika bilan barobar uyqudan uyg'ongan saroy ahllari o'z yumushlari bilan band ekanlar. Ularga oshiqlik hissi begona bo'lganligidan hammalarining qorinlari ochib qolibdi, ayniqsa, bosh kanizakning qorni juda ham ochib ketibdi va u ovozining bori-chas: «Malikam, ovqatga marhamat qilsinlar», debdi. Shahzoda qizga o'rnidan turishga ko'maklashibdi. Malikaning kiyimlari o'ta dabdabali va biroz eski-cha urfda bo'lishiga qaramay, u nihoyatda sohib-jamol ekan.

Shahzoda va malika ko'zguli mehmonxonaga o'tib, tamaddi qilibdilar, ularga malikaning mu-lozimlari xizmatdalar, musiqachilar yuz yil ilgari rasm bo'lган nihoyatda go'zal kuylarni ijro etibdilari. Bosh ruhoniy saroy cherkovida shu kuniyoq ularni nikohlabdi va bosh kanizak ularni yotoqlari-ga kuzatib qo'yibdi. Malika yuz yil mobaynida xo'p uqlab olgan bo'lganidan, ular ko'p uqlamabdilar va shahzoda tong otar-otmas o'zidan toza xavotir olayotgan otasining huzuriga jo'nab ketibdi. U otasiga ov qilib yurib, o'rmonda adashib qoldim va bir ko'mirchining chaylasida tunab qolib, uning

non va pishlog'idan yedim, debdi. Qirol oliyjanob kishi bo'lganligidan, o'g'liga ishonibdi. Lekin qirolicha shahzodaning yurish-turishidan shubhalana boshlabdi, negaki u ikki-uch kunlab ov bahonasida yo'q bo'lib ketadigan va har safar yangi-yangi bahonalar o'ylab topadigan bo'libdi. Oradan ikki yil o'tibdi, shahzoda va malika bir qiz va bir o'g'illik bo'libdilar, ular bir-birlaridan go'zal farzandlarining to'ng'ichiga Tong va o'g'illariga Kun deb ism qo'yibdilar.

Qirolicha o'g'li shahzoda bilan sirdosh bo'lishga harakat qilar va har doim boriga shukur qilib yashash kerak, der ekan. Lekin shahzoda onasini qanchalar yaxshi ko'rmasin, unga o'z sirini aytishga qo'rqrar ekan, negaki qirolicha odamxo'rlar avlodidan bo'lib, qirol u badavlat bo'lgani uchun unga uylangan ekan. Saroyda qirolichada odamxo'rlik alomatlari hali ham bor, u yonidan kichkina bolalar o'tib qolgudek bo'lsa, ularning ustiga tashlanishdan o'zini zo'rg'a tiyib turadi, degan gaplar ham yurar ekan. Shu sababli ham shahzoda qirolichaga hech narsani aytishni xohlamas ekan.

Oradan yana ikki yil o'tibdi va qirol olamdan o'tib, shahzoda uning o'rniga taxtga o'tiribdi va o'zining uylangan ekanligini hamda ikki farzandi bor ekanligini tantanali ravishda e'lon qilibdi. Shahzoda rafiqasi bo'lmish malikani hamda ikki farzandini dabdaba bilan qasrdan saroya ko'chirib olib kelibdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tib, qirol qo'shni Kantalabyut podshosi bilan urushga jo'nabdi. U saltanatni idora etishni onasi qirolichaga topshiribdi

hamda rafiqasi va farzandlariga mehribon bo'lishini tayinlabdi. Qirol jo'nab ketgan zahotiyoy, qirolicha kelini va nabiralarini quyuq o'rmon ichiga joylashgan chorbog'ga jo'natibdi va o'sha yerda o'zining yovuz niyatini amalga oshirmoqchi bo'libdi. Bir necha kun o'tgach, qirolichaning o'zi ham o'sha yerga boribdi va eshik og'asiga: «Ertaga kechki ovqatga nabiram Tongni pishiringlar», – debdi. «Nimalar deyapsiz, malikam», – debdi eshik og'asi. «Ixтийорим шу, – debdi qirolicha (бу со'зларни у yangi go'sht yegisi kelayotgan odamxo'r larga xos qat'iyat bilan aytibdi), – dasturxonga uni qo'zigorinli hamda qalampirli qayla bilan tortinglar».

Sho'rlik eshik og'asi odamxo'r qirolicha bilan hazillashib bo'lmaslikni tushunib, katta pichog'ini olibdi-da, Tongning xonasiga boribdi. Endigina to'rt yoshga kirgan qizaloq yugurib kelib, eshik og'asining quchog'iga o'zini otibdi va xo'rozqang so'rabdi. Eshik og'asining ko'zlaridan yosh chiqib, pichoqni qo'lidan tushirib yuboribdi. Shundan keyin u molxonaga borib, qo'zichoqlardan birini so'yibdi va go'shtini pishirib, mazali qayla bilan dasturxonga tortibdi. Eshik og'asi Tongni o'z uyiga olib borib, xotiniga uni xilvat joyga yashirib qo'yishni topshiribdi.

Oradan bir hafta o'tgach, yalmog'iz qirolicha yana chorbog'ga kelibdi va eshik og'asiga: «Kechki ovqatga Kunni yemoqchiman», – debdi. Eshik og'asi e'tiroz bildirmabdi va Kunni izlay boshlabdi. Atigi uch yoshga kirgan shahzoda jajji qilichini qo'liga ushlab olib, bahaybat maymunga «hujum» qilib turgan ekan. Eshik og'asi Kunni ham Tong-

ning yoniga yashirish uchun xotiniga topshiribdi va uning o'miga nozik etli uloqchani so'yib, odamxo'r qirolichaga pishirib beribdi. Yalmog'iz avvalgidan ham xursand bo'libdi.

Hamma narsa ko'ngildagidek ketayotgan ekan-u, lekin kunlarning birida odamxo'r qirolicha yana chor bog'da paydo bo'libdi va eshik og'asiga: «Endi menga yana avvalgidaqa qaylada malikani pishirib berasan», – debdi. Bechora mulozimning bu safar qirolichani aldab bo'lmasligiga ko'zi yetib, hafsalasi pir bo'libdi. Agar yuz yil uxlaganini hisobga olmaganda, sohibjamol malika endigina yigirma yoshga kirgan ekan: uning terisi oppoq va tekis bo'lسا-da, biroz qattiqroq ekan. Shuning uchun og'ilxonada terisi shunchalar qattiq hayvonni to-pish mushkul ish ekan. Eshik og'asi o'z boshini saqlab qolish niyatida malikani qurbon qilmoqchi bo'libdi va qo'lida xanjar tutib, shahd bilan uning bo'lmasiga kirib boribdi. Ayni paytda u malikaga bo'lgan hurmatini bajo keltirib, yotig'i bilan unga qirolichaning buyrug'ini yetkazibdi. «Buyruqni bajaring, tezroq bajaring, – debdi malika eshik og'asiga tiz cho'kib, – shunda ko'zimning oq-u qoralari, juvonmarg bo'lgan bolalarimni ko'rsam ehtimol». Malika farzandlarini o'lgan deb hisoblar, chunki eshik og'asi hech bir so'z demay ularni olib chiqib ketgan ekan.

«Yo'q, yo'q, malikam, – debdi ko'ngli yumshab ketgan eshik og'asi. – Siz o'lmaysiz. Bolalarингиз ham u dunyoda emas, ularni men yashirib qo'ygan joyda, mening uyimda ko'rasiz. Men yana qirolichani aldayman va o'mingizga unga kiyikning

go'shtini yediraman». Shundan keyin eshik og'asi malikani farzandlarining oldiga yetaklab boribdi va ona o'z farzandlari bilan topishib, ko'z yoshi qilayotganida, yosh bir kiyikni so'yib, obi-tobida qirolichaning oldiga qo'yibdi. Yalmog'iz qiroliche qilmishlaridan xursand bo'lib, avvalgidek ishtaha bilan kiyik go'shtini paqqos tushiribdi. U qiroq qayt-gudek bo'lsa, xotining bilan bolalarining o'rmonda quturgan bo'rilar to'dasi yeb qo'yibdi, deb aytaman degan rejani ham pishirib qo'yibdi.

Oqshomlarning birida qiroliche o'z odatiga ko'ra yangi etning isini olish uchun hovlida aylanib yurgan ekan, kenjatoy Kunning yig'isi qulog'iga chalinib qolibdi. U sho'xlik qilgani uchun onasidan kaltak yegan, jajji Tong esa ukasi uchun afv so'ramoqda ekan. Odamxo'r yalmog'iz malika va uning bolalarini ovozidan tanib qolibdi, aldanganini bilib, fig'oni falakka chiqibdi. Tong otishi bilanoq, u hammani dahshatga soladigan guldurak ovozda saroy hovlisiga bahaybat qozon keltirishlarini va uning ichini zaxarli hasharotlar va qurbaqalar bilan to'ldirishni buyuribdi. Qiroliche qozonning ichiga malikani, uning bolalarini, eshik og'asini, uning xotini va xizmatkor ayolni tashlatmoqchi bo'libdi. Ularning qo'llarini bog'lab, saroy hovlisiga keltirishlarini buyuribdi.

Shunday qilibdilar ham. Jallodlar ularni qozonga tashlashga hozirlik ko'rayotganlarida saroya shoshgan holda qiroq kirib kelibdi va nimalar bo'lyapti o'zi, deb hayqiribdi. Hech kim hech narsa deyishga botinmabdi. Odamxo'r qiroliche pand yeganiga chiday olmay o'zini o'sha qozon ichiga otibdi,

uning ichidagi maxluqlar yalmog'izning surobini bir-pasda to'g'rilaq qo'yibdilar. Qirol onasining o'limiga biroz kuygandek bo'libdi, lekin farzandlari va go'zal rafiqasi bilan diyordi ko'rishib, taskin topibdi.

## SEHRGARLAR

**B**ir bor ekan, bir yo'q ekan, bir beva xotin-ning ikki qizi bor ekan. Katta qiz har tomonlama, qiyofada ham, fe'l-atvorda ham onasiga tortgan ekan. Ona-bola o'ta badfe'l va dimog'dor ekanliklaridan, hech kimning ular bilan bordi-keldi qilgisi kelmas ekan. Kenja qiz esa, xushfe'llik va haqiqatgo'ylikda quyib qo'ygandek otasiga o'xshar, buning ustiga o'sha viloyatning eng go'zal qizlaridan ekan. Ko'r ko'mi qorong'ida topar deganlaridek, ona katta qizini o'tqazishga joy topolmas va ayni paytda kengjatoyini juda yomon ko'rarkan. Kenja qiz mehnatdan bosh ko'tarmas, ovqatni ham o'choq boshida yeyishga majbur ekan.

Bechora qizcha kuniga ikki marta uydan naq yarim chaqirim yerda joylashgan buloqdan kattakon xumda suv olib kelishga majbur ekan. Bir kuni u odatdagidek buloq boshiga borgan ekan, mushtipar, bechorahol bir ayolni uchratib qolibdi. O'sha ayol qizdan ichish uchun suv so'rabdi. «Bajonidil, onajon», – debdi sohibjamol qiz. Keyin u xumni yaxshilab chayib, buloqning eng tiniq joyidan suv to'ldirib olib, ayolga tutibdi va u bemalol ichib olsin deb xumning bir chekkasidan ushlab turibdi. Ayol tashnaligini qondirgach, qizga shunday debdi: «Siz shunchalar chiroyli, shunchalar

saxiy va shunchalar oliyhimmat ekansizki, yaxshi bir narsa sovg'a qilishdan o'zimni tiya olmayman (ayol sehrgar parilar toifasidan bo'lib, sohibjamol qizni sinab ko'rish maqsadida qishloqi, mushtipar ayol ko'rinishiga kirib olgan ekan). Bu sovg'a shundan iborat bo'ladi, bundan buyon siz gapir-ganizingizda og'zingizdan yo gul, yo dur-u gavhar sochilib turadi».

Sohibjamol qiz uyiga qaytgach, onasi uni kech qaytgani uchun koyiy boshlabdi. «Kech qolganim uchun meni kechiring, oyijon», – debdi bechora qiz. U shu so'zlarini aytib bo'lishi bilan, og'zidan ikkita atirgul, ikkita dur va ikkita gavhar otilib chiqib-di. «Ko'zlarimga ishonmayapman, – debdi ona, – uning og'zidan dur-u gavharlar to'kilyapti chog'i, o'zi nimalar bo'lyapti, qizim» (badjahl onaning uni birinchi marta «qizim» deb chaqirishi ekan). Soddadil qiz onasiga bor gapni aytib beribdi va u so'zini tugatguncha og'zidan yana bir dunyo dur to'kilibdi. «Ana xolos, – deb o'ylabdi qizlarning onasi, – buloq boshiga to'ng'ich qizimni ham jo'natishga to'g'ri keladi. – Fanshon, – deb chaqiribdi u to'ng'ich qizini. – Singling gapirayotganda og'zidan nimalar tu-shayotganini ko'ryapsanmi? Xuddi shunday sovg'aga ega bo'lishni sen ham istasang kerak? Buning uchun bor-yo'g'i buloq boshiga borib, qashshoq bir ayol suv so'rasa unga iltifot bilan suv uzatish kerak». – «Bormagan yerim buloq boshi qoluvdi», – deb to'ng'illabdi qo'pol qiz. – «Qani hoziroq buloq boshiga jo na», – debdi onasining jahli chiqib.

Qiz to'ng'illay-to'ng'illay buloq boshiga jo'nabdi. U uydagi eng chiroyli ko'zachani ham o'zi bilan

birga olib ketibdi. Qiz buloq boshiga yetib kelishi bilanoq, o'rmon ichidan chiroyli kiyangan bir ayol chiqib, ichishga suv so'rabdi. U qizning singlisi bilan suhbatlashgan sehrgarning o'zi bo'lib, faqat bu safar to'ng'ich qizning tarbiyasi qay darajada ekanligini sinab ko'rish uchun malikalarning libosida ekan. «Nima, bu yerga men sizga suv berish uchun kelganmanmi? – debdi unga qo'pol qiz behayolarcha. – Balki mana bu chiroyli kumush ko'zachani ham siz janobi oliyalariga suv tutish uchun olib kelgandirman? Ana suv, to'lib-toshib yotibdi. Istaningizcha ichavering». – «Yaxshi tarbiya ko'rmaganga o'xshaysan, – debdi sehrgar pari xotirjamlik bilan. – Fe'l-atvoringga yarasha seni sovg'a bilan taqdirlayman: bundan buyon gapirganingda og'zingdan ilon yoki qurbaqa tu-shadigan bo'ladi».

To'ng'ich qiz eshikdan kirar-kirmas, onasi uni gapga solibdi: «Xo'sh qizim, ishlar qalay?» – «Chakki emas, oyijon», – deb javob beribdi unga qizi. U shu so'zlarni aytishi bilanoq og'zidan ikki qurbaqa va ikki ilon otilib tushibdi. – «E xudoyim, – deb qichqiribdi dahshatga tushayotgan ayol, – bu nima degan gap? Hammasiga singling sababchi, hozir uning po'stagini qoqib qo'yaman». Shu so'zlarni aytib, u qo'liga kaltak olib, kenja qizga tashlanibdi. Sho'rlik qiz shu yaqin oradagi o'rmon ichiga kirib ketib, jon saqlay boshlabdi. O'sha atrofda ov qilib yurgan shahzoda qizni uchratib qolibdi va uning go'zalligidan hayratga tushib qorong'i o'rmonda bir o'zi nima qilib yurganini, nima uchun yig'layotganini so'rabdi. «Yig'layotganimning sababi

– onam uydan haydab yubordi», – debdi qiz. U shu so‘zlarni aytishi bilan og‘zidan besh-oltita dur va gavhar tushibdi. Shahzoda bundan hayratga tushibdi va qizdan bor gapni aytib berishni iltimos qilibdi. Qiz shahzodaga boshiga tushgan voqealarni so‘zlab beribdi. Shahzoda qizga oshiq bo‘lib qolibdi va qolaversa, bunday fazilatli qayliq doim ham uchrayvermasligiga fahmi yetibdi. U qizni otasi qirol huzuriga olib ketib, unga uylanibdi.

To‘ng‘ich qizga kelsak, u hammani dahshatga soladigan bo‘lganidan hattoki o‘z onasi ham uni uyidan quvib solibdi. Baxtiqaro qiz o‘rmonda tentiray-tentiray va yordam qo‘lini cho‘zuvchi hech bir kimsani uchratmay, o‘rmonning bir chekkasiga borib jon beribdi.

## KOKILDOR RIKE

**K**unlardan bir kuni bir mamlakatning malikasi o‘g‘il ko‘ribdi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq shu qadar badbashara, shu qadar xunuk ekanki, uning odam bolasi ekanligiga shubha qiluvchilar ham topilibdi. Dunyoga kelish paytida hozir bo‘lgan sehrgar pari: «Chaqaloq xunuk bo‘lsa-da, o‘ta aqli bo‘ladi va unga o‘zini yoqtirib qolgan odamga ham aql ato qilish fazilati berilgan», – debdi.

Bu so‘zlarni eshitgan malikaning ko‘ngli bir qadar taskin topibdi. Chaqaloqning tilga kirishi ham odatdagidek kechmabdi, u asta-sekin emas, birdaniga va dona-dona qilib so‘zlay ketibdi hamda allaqanday bir ilohiy kuch ta’sirida o‘z xatti-harakat-

lari bilan hammaning e'tiborini qozona boshlabdi. Aytmoqchi, chaqaloqning yana bir tug'ma belgisi bor ekan – u kokilli bo'lib tug'ilibdi va hamma uni Kokildor Rike deb chaqira boshlabdi, negaki bolakayning asl ismi Rike ekan.

Oradan yetti-sakkiz yil chamasi vaqt o'tgach, qo'shni mamlakatdagi qirolichaning ko'zi yorib, egizak qizlar dunyoga kelibdilar. Egizaklarning to'ng'ichi shu qadar chiroyli ekanki, qirolicha bundan o'zida yo'q xursand bo'libdi. Kokildor Rike tug'ilgan chog'ida hozir bo'lgan sehrgar pari bu yerga ham kelibdi va malikaning quvonchini bir qadar me'yorga keltirish maqsadida: «Qizcha qanchalar sohibjamol bo'lsa, shunchalar esi past bo'la-di», – deb bashorat qilibdi. Bu so'zlarni eshitib, parishon bo'lgan malika ikkinchi qizining badbasaraligini ko'rib, yanada xafa bo'libdi. «Aslo xafa bo'lman, malikam, – debdi sehrgar pari, – qizingiz xunuk bo'lgani bilan, shu darajada aqli ham bo'ladiki, ko'rimsizligi bilinmay ketadi». – «Nanchora, Xudoning xohishi shu ekan, lekin kichik qizimning aqlidan ozgina qismini katta qizimga olib bersa bo'lmaydimi?» – «Aql masalasida unga yordam berishdan ojizman, malikam, – debdi unga pari. – Lekin ko'nglingizni ko'tarish uchun shuni aytishim mumkinki, qizingizga o'ziga yoqqan kimsani chiroyli qila olish fazilatini ato qilaman».

Qizlarning yoshlari ulg'aygan sayin, ularning fazilatlari ham kamolga yeta boshlabdi. To'ng'ich qizning husniga husn, kenja qizning aqliga aql qo'shilaveribdi. Lekin qizlarning kamchiliklari ham orta boribdi. Kenja malika tobora xunuk bo'la-

veribdi, kattasining gap-so'zлari esa, borgan sari bema'nilashibdi. U yo o'ziga berilgan savollarga javob bermas, yo bironta noo'rin javob qaytararkan. Qiz shunchalar uquvsiz ekanki, to'rtta pi-yolani tokchaga qator qilib qo'ya olmas, ulardan albatta birortasini sindirib qo'yar ekan. Yoki bir piyola suvni ham to'kmasdan, kiyimlarini ho'l qilmasdan icholmas ekan.

Balog'atga yetayotgan qizlar uchun sohibjamollik katta fazilat sanalsa-da, barcha ziyofat-u yig'ilishlarda g'alaba kenja malikada ekan. To'g'ri, odamlar avvaliga sohibjamol malikaning atrofida to'planishar va uning husni jamolidan zavqlanishar ekan, lekin biroz turib sermazmun suhbatlardan bahramand bo'lish uchun kenja malikaning yoniga borishar ekan, shunisi ajablanarli ekanki, chorak soat o'taro'tmas to'ng'ich malikaning atrofida hech kim qolmas va hamma kenja malikaning atrofidan joy olar ekan. Qanchalar farosatsiz bo'lmasin, qizlar ning kattasi bularning hammasini tushunar va singlisining yarim aqliga ega bo'lish uchun o'zining butun husnini berib yuborishga tayyor ekan. Hatto qirolicha ham maza-bemaza qiliqlar qilgani va be'mani gaplarni gapirgani uchun to'ng'ich qiziga tez-tez dashnom berar, bu esa to'ng'ich malikaga, ayniqsa, og'ir botar ekan.

Alam va pushaymondan yuragi siqilgan to'ng'ich malika kunlarning birida o'rmonga borib, biroz ko'nglini yozmoqchi bo'libdi. O'rmonda u o'ta xunuk, pakana va badbashara, lekin shohona kiyimlar kiygan kimsani uchratib qolibdi. Bu kimsa navqiron shahzoda Kokildor Rike bo'lib, u to'ng'ich

malikaning suratini ko'rib, unga g'oyibona oshiq bo'lgan va qiz bilan ko'rishish niyatida, uning yurtiga yo'l olgan ekan. Qizni o'rmonda yolg'iz uchratishdan benihoya shod bo'lgan Kokildor Rike imkoni boricha tavoze va e'tibor bilan uning yoniga boribdi. Qizga nimalar demasin, u befarqligicha qolaveribdi. Buni ko'rgan Rike qizga debdi: «Sizdek sohibjamolning parishon ekanligi meni hayratga solyapti, malikam. Aytishim kerakki, go'zallarning ko'pini ko'rganman, lekin ularning ichida sizga teng keladiganini uchratmaganman». – «Odob yuzasidan shunday deyapsiz, – debdi Malika. – Nima bo'lganda ham gaplaringizni hech kim eshitmaydi». – «Go'zallik shunday xislatki, – deb davom etibdi Kokildor Rike, – u barcha fazilatlarning o'rmini bosa oladi, binobarin parishon bo'lishingizga sira asos yo'q». – «Men hozirgiga o'xshab chiroyli va aqlsiz bo'lgandan ko'ra sizga o'xshab xunuk va aqli bo'lishni afzal ko'rgan bo'lardim». «Malikam, o'zini aqlsiz, deb hisoblash ham donolikning belgisi hisoblanadi. Tabiatning o'zi biz insonlarni shunday yaratganki, qanchalar aqli bo'lib borsak, shunchalar aqlimizning kam ekanligiga ishonch hosil qilib boramiz». – «Bilmadim, bilmadim, – debdi Malika. – Shuni yaxshi bilamanki, men o'taketgan farosatsizman va bundan xafaman». – «Malikam, sizni parishon qilayotgan narsa shugina bo'lsa, ushbu illatdan osongina xalos qilishim mumkin». – «Qanday qilib?» – deb so'rabdi Malika. – «Men, Malikam, o'zimga yoqqan kimsaga yetarli darajada aql-farosat berish xislatiga egaman, – debdi Kokildor Rike. – Sizga oshiq ekanligimni hisobga

olsak, bu yog'i o'zingizgagina bog'liq, ya'ni menga turmushga chiqishga rozi bo'lsangiz bas».

Malika nima deyishini bilmay, jim qolibdi. «Bilaman, taklifimning sizga g'alati tuyulishi tabiiy, shuning uchun ham yaxshilab o'ylab ko'rish uchun bir yil vaqt beraman». Malikaning esi shunchalar past va ayni paytda shunchalar aqli bo'lishni istayotgan ekanki, bir yil o'tguncha bir gap bo'lar deb, rozilik berib yuboribdi. U Kokildor Rikega rosa bir yildan keyin ayni shu kuni senga turmushga chiqaman deb va'dani bergen ekan hamki, o'zida ilgari hech sezmagan o'zgarish bo'lganini payqabdi. O'ziga yoqadigan narsalar haqida endi bemalol gapirishi, gapirganda ham o'ta tabiiy bir nazokat bilan, aslo qiyalmay gapirishi mumkin ekan. U o'sha lahzanining o'zidayoq Kokildor Rike bilan shunday chiroyli suhbat quribdiki, Rike malikani o'zimdan ham aqlliyoq qilib yubormadimmiikan, deb o'ylab qolibdi.

Malika saroyga qaytgach, undagi o'zgarishni payqagan a'yonlar-u mulozimlar hayratga tushishibdi. Ilgarilari bema'nigarchiliklar va bemazagarchiliklardan boshqa narsalarni aytishga qodir bo'lмаган malika, endi faqat oqilona suhbatlar quradigan, jo'yali maslahatlar beradigan bo'lib qolibdi. Butun saroy ahli ushbu o'zgarishdan juda quvonibdi. Lekin avvalgi mavqeyini yo'qotgan kenja malika aslo xursand emas ekan.

Qirol mamlakat ishlarida katta qizining maslahatlariga kiradigan, hatto uni davlat kengashlariga taklif qiladigan bo'libdi. Ushbu shov-shuvlar qo'shni mamlakatlarga ham tarqalibdi va u yerlar-

ning shahzodalari qizga sovchi qo'ya boshlabdilar, lekin ularning birortasi ham donolikda qizga bas kelolmabdi va malika kuyovlarning barchasiga rad javobini beribdi. Kunlarning birida juda badavlat, qudratli va oqil bir shahzoda malikaga uylanish istagini bildiribdi. Bu safar malika rad javobini berishga qiynalib qolibdi. Buni ko'rgan qiroq qiziga o'zi istagan odamga turmushga chiqajagini va'da qilib, tezroq bir qarorga kelishni so'rabdi. Ma'lumki, aqli kimsalar bunday qarorni shoshilib qabul qilmaydilar, malika ham otasidan o'ylab ko'rish uchun muhlat berishni iltimos qilibdi.

Malika bir qarorga kelishdan oldin bemalol va tanho fikrlab olish maqsadida o'rmonga boribdi. Tasodifni qarangki, bu o'rmon Kokildor Rikeni uchratgan o'rmon ekan. Xayollari og'ushida o'rmon kezar ekan, kutilmaganda yer qa'ridan kelayotgan g'alati shovqinni elas-elas eshita boshlabdi. Malika xiyol engashib qulqoq tutibdi va kimlarningdir: «Qozonni olib kelinglar», «Suv isitinglar», «O'choqqa o't yoqinglar», degan gaplarini eshitibdi. Shu payt yer yorilibdi va malika yuzlab mulozimlar, xizmatkorlar va oshpazlarning katta ziyofatga hozirlik ko'rayotganlarining guvohi bo'libdi. Favqulodda ularning ichidan yigirma-o'ttiz chog'li odam ajrab chiqib, o'rmonning eng bahavo yerida dasturxon tuzatishga kirishibdilar.

Hayratga tushgan malika ushbu tayyorgarliklarni kim va nima uchun qilinayotganligini so'rabdi. «Biz, Malikam, shahzoda Kokildor Rikening ertaga bo'ladigan to'yiga tayyorgarlik ko'rmoqdamiz», — debdi ularning ichida savlatlirog'i. Bunday javobdan

malikaning hayronligi oshibdi. Keyin u rosa bir yil avval, mana shu o'monda, aynan shu yerda Kokildor Rikega turmushga chiqishga va'da bergenini eslab, hafsalasi pir bo'libdi. Malika ushbu va'dani hali yetarli darajada aqlli bo'limgan vaqtida bergenligidan, keyinchalik Kokildor Rikening yordamida oqila va dono bo'lib qolgach, avvalgi hamma xatolari qatori, unutib yuborgan ekan.

U o'rmon yoqalab yana bir necha qadam tashlagan ekan hamki, nikoh to'yi marosimi munosabati bilan chiroyli kiyinib olgan, sertakalluf va sertavoze shahzoda Kokildor Rikening o'zi hozir-u nozir bo'libdi. «Ko'rib turibsizki, Malikam, men va'damning ustidan chiqdim va aslo shuhham yo'qki, siz ham qo'lingizni menga berib, meni dunyodagi eng baxtiyor kimsaga aylantirish uchun, ya'ni va'dangizni bajarish uchun kelgansiz». – «To'g'risini aytsam, – deb javob beribdi malika, – bu to'g'rida bir to'xtamga kelganimcha yo'q hali. Lekin, nima bo'lganda ham, qabul qiladigan qarorim siz kutgandek bo'lmaydi degan fikrdaman». – «Meni hayratga solyapsiz, Malikam, – debdi unga Kokildor Rike. – «Bilaman, – debdi malika, – yana shuni ham bilamanki, sizning o'rningizda boshqa, tarbiya ko'rmagan odam bo'lganda menga: «Malikaning so'zi so'z, va'dani berdingizmi, turmushga chiqing endi», degan bo'lardi. Lekin siz dunyodagi eng aqlli odam bo'lganining sabab, meni to'g'ri tushunishingizga ishonaman. Esingizda bo'lsa, hali g'irt ahmoq ekanimda ham sizga turmushga chiqishni istamaganman, mening aqlimni o'zingiz kirgizib, oq-qorani ajrata oladigan bo'lganimda

nega o'shanda o'zim istamagan qarorga endi rozi bo'lishim kerak ekan? Menga uylanishni chindan ham xohlagan bo'lsangiz, aqlimni kirkazib, meni avvallari sezmagan narsalarni bilishga o'rgatib katta xato qilgansiz». – «Nega endi farosatsizroq kimsa sizdan so'zingizda turishni talab qila olar ekan-u, hayot-mamotim, baxtim va kelajagim haqida so'z borayotgan bir paytda men ushbu imkoniyatdan foydalanmay? – debdi Kokildor Rike. – Nega endi aqli kishilar aqlsizroqlarga nisbatan ko'proq jabr ko'rishlari kerak? Avvallari aqli bo'lishni juda ham xohlagan va endilikda fahm-farosatda tengi yo'q sizdek oqila bu haqda nima degan bo'lardin-giz? Keling, sizga uylanishim masalasiga qaytaylik. Sizga xunukligimdan boshqa yana qaysi xislatim yoqmaydi? Nasl-nasabim, aql-hushim, xulq-atvorim-ga da'volaringiz bormi?» – «Aslo, – debdi malika. – Hozirgina aytib o'tgan jihatlarining hammasi menga yoqadi». – «Unday bo'lsa, ish oson ekan, – debdi Kokildor Rike. – Siz meni xunuklik illatidan xalos qilishingiz va baxtiyor qilishingiz mumkin». – «Buni qanday amalga oshiramiz?» – debdi malika. – «Buni amalga oshirish uchun, – debdi shahzoda Rike, – chiroyli bo'lishimni juda-juda xohlashingiz kerak, xolos. Sizni xotirjam va shubhalardan xoli qilish uchun, Malikam, yana shuni ham aytmoq-chimanki, men dunyoga kelgan kunim sehrgar pari o'zimga yoqqan kimsani o'ta dono qila olish fazilatini in'om etgan, xuddi ana o'sha sehrgar, sizga o'zingiz yoqtirgan kimsani, agar istasangiz, o'ta yoqimtoy qila olish xislatini bergen». – «Unday bo'lsa, – debdi malika, – o'zimga berilgan

bor imkoniyatdan sizni bahramand qilishni va sizni dunyodagi eng chiroyli va yoqimtoy shahzodaga aylanishingizni juda-juda istayman».

Malika o'z so'zlarini tugatar-tagatmas, Kokildor Rike uning ko'z o'ngida dunyodagi eng kelishgan va eng xushsurat yigitga aylanib qolibdi. To'g'ri, ushbu o'zgarishning sababchisi sehrgar parining bashorati emas, balki muhabbatdir, deguvchilar ham topilibdi. Ularning aytishlaricha, Kokildor Rikeni qat'iyati, mardligi, kamtarligi va boshqa fazilatlari uchun sevib qolgan malikaning ko'zlariga shahzodaning gavdasidagi illatlar, yuzining xunukligi ko'rinxmay qolibdi. Uning nazarida shahzodadagi bukrilik – pahlavonlik belgisi, biroz oqsashi – shoshilmay ohista yurishning alomati, ko'zlarining katta-kichik ekanligi uning sevib qolganligidan darak berayotgandek, qiyshiq burni uning sarkarda va qahramon ekanligini tasdiqlayotgandek bo'lib ko'ringan emish.

Nima bo'lganda ham o'sha yerning o'zida malika, agar otamning roziligini olsangiz, sizga turmushga chiqaman, deb Kokildor Rikega va'da qilibdi. Rikening sermulohaza va donoligini eshitgan hamda qizining unda ko'ngli borligini bilgan qirol bajonidil ularning to'ylariga rozilik beribdi. Kokildor Rikening avvaldan o'ylab qo'ygan rejasি bo'yicha, to'y ertasi kuniyoq bo'lib o'tibdi.

## JIMJILOQVOY

**B**ir bor ekan, bir yoq ekan, qadim o'tgan zamonda o'tinchi va uning xotini bo'lgan ekan. Ularning bir emas, ikki emas, yetti farzandlari bo'lib, hammasi o'g'il bola ekan. To'ng'ich o'g'ilning yoshi o'nda, kenjatoy bo'lsa, endigina yetti yoshga kirgan ekan. Farzandlarning deyarli hammasi egizak bo'lganligidan, ularning yoshlarida aytarli katta farq yo'q ekan.

O'tinchi va uning xotini yo'qsil kishilar bo'lib, hali yosh va ishlamaydigan yetti farzandni bo-qishga qiynalar ekan. Buning ustiga eng kichkina o'g'illari sira gapirmas, nozik-nihol ekan. Ota-onada donolikning alomati bo'lgan indamaslikni esi pastlikka yo'yib, qattiq tashvishda ekanlar. Uning bo'yipak-pakana ekan, tug'ilganida bor-yo'g'i jimjiloq kattaligida bo'lganidan hamma uni Jimjiloqvoy deb chaqirar ekan.

Bechora bolani uydagilar yoqtirishmas va esi past deb o'ylashar ekan. Aslida bo'lsa, Jimjiloqvoy yetti o'g'ilning ichida eng aqlisi ekan, kam gapirib, ko'p eshitar ekan.

Bir yili qish qattiq kelib, mamlakatda ochlik boshlanibdi. Qahatchilik shu darajada qattiq bo'lib-diki, sho'rlik ota-onada farzandlaridan qutilish payiga tushibdilar. Oqshomlarning birida o'choq oldida isinib o'tirgan o'tinchi xotiniga debdi: «O'zing ko'rib turibsan, bolalarga yedirishga uyda hech vaqo qolmadi. Ularning ko'z o'ngimizda ochlikdan o'lishlarini istamayman. Ertaga o'rmonga olib borib, adashtirib kelamiz. Ular shox-shabba yig'ib,

bor imkoniyatdan sizni bahramand qilishni va sizni dunyodagi eng chiroyli va yoqimtoy shahzodaga aylanishingizni juda-juda istayman».

Malika o‘z so‘zlarini tugatar-tagatmas, Kokildor Rike uning ko‘z o‘ngida dunyodagi eng kelishgan va eng xushsurat yigitga aylanib qolibdi. To‘g‘ri, ushbu o‘zgarishning sababchisi sehrgar parining bashorati emas, balki muhabbatdir, deguvchilar ham topilibdi. Ularning aytishlaricha, Kokildor Rikeni qat’iyati, mardligi, kamtarligi va boshqa fazilatlari uchun sevib qolgan malikaning ko‘zlariga shahzodaning gavdasidagi illatlar, yuzining xunukligi ko‘rinmay qolibdi. Uning nazarida shahzodadagi bukrilik – pahlavonlik belgisi, biroz oqsashi – shoshilmay ohista yurishning alomati, ko‘zlarining katta-kichik ekanligi uning sevib qolganligidan darak berayotgandek, qiyshiq burni uning sarkarda va qahramon ekanligini tasdiqlayotgandek bo‘lib ko‘ringan emish.

Nima bo‘lganda ham o‘sha yerming o‘zida malika, agar otamning roziligini olsangiz, sizga turmushga chiqaman, deb Kokildor Rikega va’da qilibdi. Rikening sermulohaza va donoligini eshitgan hamda qizining unda ko‘ngli borligini bilgan qirol bajonidil ularning to‘ylariga rozilik beribdi. Kokildor Rikening avvaldan o‘ylab qo‘yan rejasi bo‘yicha, to‘y ertasi kuniyoq bo‘lib o‘tibdi.

## JIMJILOQVOY

**B**ir bor ekan, bir yoq ekan, qadim o'tgan zamonda o'tinchi va uning xotini bo'lgan ekan. Ularning bir emas, ikki emas, yetti farzandlari bo'lib, hammasi o'g'il bola ekan. To'ng'ich o'g'ilning yoshi o'nda, kenjatoy bo'lsa, endigina yetti yoshga kirgan ekan. Farzandlarning deyarli hammasi egizak bo'lganligidan, ularning yoshlarida aytarli katta farq yo'q ekan.

O'tinchi va uning xotini yo'qsil kishilar bo'lib, hali yosh va ishlamaydigan yetti farzandni bo-qishga qiynalar ekan. Buning ustiga eng kichkina o'g'illari sira gapirmas, nozik-nihol ekan. Ota-onalikning alomati bo'lgan indamaslikni esi pastlikka yo'yib, qattiq tashvishda ekanlar. Uning bo'yip pak-pakana ekan, tug'ilganida bor-yo'g'i jimjiloq kattaligida bo'lganidan hamma uni Jimjiloqvoy deb chaqirar ekan.

Bechora bolani uydagilar yoqtirishmas va esi past deb o'ylashar ekan. Aslida bo'lsa, Jimjiloqvoy yetti o'g'ilning ichida eng aqlisi ekan, kam gapirib, ko'p eshitar ekan.

Bir yili qish qattiq kelib, mamlakatda ochlik boshlanibdi. Qahatchilik shu darajada qattiq bo'lib-diki, sho'rlik ota-onalik farzandlaridan qutilish payiga tushibdilar. Oqshomlarning birida o'choq oldida isinib o'tirgan o'tinchi xotiniga debdi: «O'zing ko'rib turibsang, bolalarga yedirishga uyda hech vaqo qolmadi. Ularning ko'z o'ngimizda ochlikdan o'lishlarini istamayman. Ertaga o'rmonga olib borib, adashtirib kelamiz. Ular shox-shabba yig'ib,

o'ynab yurganlarida sekingina qochib qolamiz». – «Nahotki, o'z qo'ling bilan o'z bolalaringni o'rmonda adashtirib kelmoqchi bo'lsang», – debdi xotini. O'tinchi xotiniga o'zlarining naqadar qashshoq ekanliklarini uzoq tushuntiribdi. Lekin bechora ona uzoq vaqt bu ishga rozi bo'lma bdi. Negaki hamma onalar qatori, u ham o'z farzandlarini jonidan ortiq ko'rар ekan. Biroq farzandlarining ochlikdan jon berishlarini ko'rishni istamaganidan, u nihoyat rozi bo'libdi va yig'lay-yig'lay uxlagni yotibdi.

Jimjiloqvoy ota-onasining barcha gaplarini eshitib olibdi, ular shivirlashib so'zlashayotganlarida uyg'onib qolib, sekingina otasi o'tirgan kursining tagiga kirib olgan va bu rejadan xabardor bo'lgan ekan. Keyin Jimjiloqvoy yana hech kimga sezdirmay o'miga yotibdi, tong otgunga qadar uxlamabdi. Ertalab turib chog'anicha daryo bo'yiga boribdi-da, cho'ntaklarini mayda oq toshlar bilan to'ldirib qaytibdi. Shundan keyin, butun oila o'rmonga yo'l olibdi. Jimjiloqvoy ko'rgan-eshitganchi haqida akalariga lom-mim demabdi.

O'tinchi xotini va bolalarini o'rmonning eng quyuq joyiga boshlab boribdi. Keyin o'tin kesishga tushibdi, bolalariga shox-shabbalarni yig'ib, bog'lashni buyuribdi. Bolalarning ish bilan ovora bo'lib qolganliklarini ko'rgan ota-onsa sekingina qochib qolishibdi va aylanma so'qmoq yo'ldan uylariga qaytishibdi. O'zlarining yolg'iz qolganliklarini bilgach, bola bechoralar qo'rqib ketganliklaridan ovozlarining boricha baqirib yig'lay boshlabdilar. Jimjiloqvoy bo'lsa, xotirjam ekan. Negaki, kelayotib u cho'ntagidagi toshlarni yo'l yoqalab tashlab kelavergan, binobarin uylari tomon bo'lgan

yo'lni qayta topib borishiga ishonchi komil ekan. Nihoyat, u akalariga debdi: «Aslo qo'rqmanglar, aka-jonlar. To'g'ri, ota-onamiz bizni adashtirib ketishdi, lekin men sizlarni uyga boshlab boraman, izimdan yuringlar».

Jimjiloqvoy yo'l boshlabdi, akalari unga ergashib-dilar. Jimjiloqvoy ularni kelgan yo'llaridan to'g'ri uylariga olib boribdi. Aka-ukalar uylariga kirishga jur'at etolmay, avvaliga asta eshikdan qulq solib ko'rishibdi.

Qishloq oqsoqolining o'tinchining va uning xotinidan eski qarzi bo'lib, er-xotin ushbu qarzning unishidan umidni butunlay uzib qo'ygan ekanlar. Ular bolalarini adashtirib qaytgan oqshom, oqsoqolning xizmatkori o'tinchining uyiga o'n ekyu pul tashlab ketibdi. Bu pul ochlikdan o'layozgan er-xotinning hayotlarini saqlab qolibdi. O'tinchini o'sha zahoti xotinini qassobning huzuriga go'sht olib kelish uchun jo'natibdi. Ko'pdan beri issiq ovqat yemagan bechora ayol keragidan ko'proq go'sht olib, katta qozon osibdi. Ovqat yeb, biroz orom olgach, ayol eriga debdi: «Bechora bolajonlarim qayerda yurishgan ekan? Bugungi ovqat hammamizga yetib, ortib qolgan bo'lardi! Sen, Giyom, ulardan qutilishni xohlab, shu ishni qilding. Bir ilojini qilarmiz deb necha marta aytgan edim. Qorong'i o'rmonda hozir nima qilishayotgan ekan? E, xudoyim, och bo'rilar allaqachon ularni yeb qo'yishgan bo'lsa kerak! Sen yovuzsan, o'z qo'ling bilan farzandlaringni adashtirib kelding».

Ayol gaplarini taxminan yigirma marta takrorlagach, o'tinchining toqati toq bo'lib, xotiniga:

«Men ham ularsiz qiyalyapman!» – deb baqiribdi. Aytish kerakki, u xotinidan ham ko'proq af-suslanayotgan ekan. U ham boshqa erkaklar kabi, xotinini yaxshi ko'rар va ayni paytda har doim ham haqiqatni tan olavermas ekan.

O'tinchining xotini ko'z yoshlari aralash nola qilaveribdi: «Oh bolajonlarim, sho'rlik bolajonlarim, qayerlarda yurgan ekansiz?» Bir safar u ushbu so'zlarini qattiqroq aytib yuborgan ekan, yetti o'g'lon baravariga: «Biz shu yerdamiz», – deb yuborishibdi. Ayol yugurib borib eshikni ochib-di-da, bolalarini bag'riga bosibdi.

Keyin hammalari dasturxon atrofiga o'tiribdilar. O'tinchi va xotini farzandlarining ishtaha bilan ovqatlanishlarini zavq bilan kuzatib o'tirishibdi. Bolajonlar birlari olib, birlari qo'yib o'rmondagi sarguzashtlarini hikoya qilib ketishibdi. Ota-onalari yana bag'irlariga qaytganidan xursand ekanlar. Lekin bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmabdi. Oqsoqol berib yuborgan o'n ekyu tamom bo'lgach, o'tinchi va xotini mushkul ahvolda qolibdilar, yana avvalgi rejalarini amalga oshirishga qaror qilibdilar. Bu safar ular bolalar qaytib uylarini topa olmasliklari uchun ularni o'rmonning ancha ichkarisiga olib borib tashlashga qaror qilibdilar.

O'tinchi va xotini qanchalik ehtiyyot bo'lib so'zlashmaslar, Jimjiloqvoy yana hamma gapdan xabardor bo'lib olibdi. U mayda toshlar bilan cho'ntaklarini to'ldirib olish maqsadida ertalab turib, daryoning bo'yiga bormoqchi bo'libdi. Lekin eshik qulf ekan. Onasi o'g'illariga nonushta o'miga bir burdadon non beribdi. Jimjiloqvoy bu sa-

far mayda toshlarning o'rniga non uvoqlarini yo'l bo'ylab sochib bormoqchi bo'lib, non burdasini cho'ntagiga solib qo'yibdi.

O'tinchi va xotini bolalarini o'rmonning eng quyuq va eng qorong'i joyiga boshlab borib, o'zлari yashirin so qmoq yo'ldan qochib qolibdilar. Jimjiloqvoy har doimgidek xotirjam ekan, negaki u yo'l yoqalab sochib kelgan non uvoqlari yordamida uylariga olib boradigan yo'lni topa olishiga ishonarkan. U yana akalariga yo'l ko'rsatish niyatida o'zi sochib kelgan non uvoqlarini qidirishga tushibdi, biroq ularni allaqachon qushlar yeb ketishgan ekan. Aka-ukalar avvaliga tusmollab yurib ko'rishibdi, biroq borgan sari tevarak-atrof quyuqlashib, qorong'ilashib boraveribdi. Qorong'i tushib, shamol uvillay boshlabdi. Bolajonlarning nazarlarida ularning atroflariga yuzlab och bo'rililar to'planib olib, uvillayotgandek tuyulibdi. Ular gaplashishga ham, atrofga nazar solishga ham jur'at etolmay qolibdilar. Bu ham kamlik qilgandek qattiq jala quya boshlabdi. Aka-ukalarning kiyimlari ivib, shalabbo bo'lib ketibdi.

Jimjiloqvoy bu ahvoldan qutilish va yo'lni topish niyatida baland bir daraxtning uchiga chiqib, atrofni kuzata boshlabdi. Favqulodda u uzoqda miltirab turgan yorug'likning aksini ko'rib qolibdi. Jimjiloqvoy daraxtdan tusha solib akalarini yorug'lik ko'ringan tomonga boshlab ketibdi. Ni-hoyat o'mon tugabdi va aka-ukalar derazasida sham yonib turgan uyning oldidan chiqib qolishibdi. Ular uyning eshigini taqillatishgan ekan, ko'rinishidan mehribon bir ayol chiqibdi va bolalar-

dan nima uchun tashrif buyurganlarini so'rabdi. Jimjiloqvoy o'rmonda adashib qolishganini aytibdi va tunash uchun joy berishlarini o'tinib so'rabdi. Ayol bir-biridan chiroylı aka-ukalarga rahmi kelib, ko'ziga yosh olibdi va ularga debdi: «Bechora bolajonlarim, qayerga kelib qolganingizni bilasizmi? Bu uy odamxo'r Ogrning uyi. U, ayniqsa, yosh bolalarni yeishni xush ko'radi». – «Nima ham qillardik, xolajon, – debdi akalari kabi dahshat-dan dag'-dag' titrayotgan Jimjiloqvoy. – Agar siz boshpana bermasangiz, o'rmondagi bo'rilarga yem bo'lishimiz aniq. Bundan ko'ra bizni Ogr amaki yeya qolsin. Kim bilsin, balki siz oraga tushsangiz, uning bizlarga rahmi kelib qolar?!»

Ogrning xotini bolalarni tong otguncha yashirib qo'yish qo'limdan kelar deb o'ylab, ularni uyga kirgizibdi va bus-butun qo'y pishirilayotgan o'choqning oldiga o'tqazibdi. Qo'y odamxo'r Ogrning kechki ovqatiga mo'ljallangan ekan. Aka-ukalarning badaniga endigina issiq Yugura boshlayotgan ekan hamki, eshik qattiq taqillab qolibdi: shubha yo'qli, odamxo'r Ogr uyiga qaytibdi. Ogrning xotini bolalarni karavotning tagiga yashirib qo'yib, eshikni ochibdi. Odamxo'r kira solib, kechki ovqatning tayyor-tayyormasligini, qaznoqdan musallas olib chiqilgan-chiqilmaganligini so'rabdi va dasturxon chetiga o'tiribdi. Qo'y go'shti hali xom ekanligiga qaramay, Ogr uni pok-pokiza tushiribdi. Keyin u bezovta bo'lib, o'ng-u so'lga alanglab, havoni iskay boshlabdi. «Yangi go'shtning isi kelyapti», – debdi u xotiniga. «Yaqindagina buzoq so'yib, terisini shilib qo'yan edim, o'shaning hididir», – debdi

xotini. – «Senga yangi etning isi kelyapti deyapman, – debdi Ogr yana xotiniga. – Ko'pdan beri bunday xushbo'y is kelmas edi uyimizdan». Shu so'zлarni aytib, u to'g'ri karavotning oldiga boribdi va uning tagidan bolalarni birin-ketin tortib olibdi. – «Ha, badbaxt xotin. Meni aldamoqchi bo'ldingmi? Sen qari yalmog'izni nimaga hozirgacha yeb qo'ymaganimga o'zim ham hayronman, – deb baqiribdi Ogr xotiniga. – Erta-indin ikki-uchta odamxo'r og aynilarim mehmonga kelishmoqchi edi. Bolalarning go'shti bilan ularni bir siylaydigan bo'ldim».

Shundan keyin Ogr katta pichoqni olib, uni qayroq tosh yordamida yaxshilab qayrabdi. U bolalardan birining qo'lidan tutgan ekan hamki, xotini so'rab qolibdi: «Yarim kechada nima qilmochchisiz? Ertaga ham kun bor-ku?» – «O'chir ovozingni, – debdi Ogr, – ertagacha go'shtga maza kirib turadi». – «Ertaga tanovul qilishingizga yetarli go'shtimiz bor axir, – debdi yana xotini. – Ana bir buzoq, ikki qo'y va yarimta cho'chqa turibdi!» – «Gaping to'g'ri, – debdi Ogr. – Ertagacha ozib qolmasliklari uchun ularni yaxshilab to'ydir, keyin uxlat».

Bechora ayolning quvonchi ichiga sig'mabdi. U bolalarga yegulik ovqat keltiribdi, lekin qo'rquvdan dahshatga tushgan bolalarning tomoqlaridan ovqat o'tmabdi. Ogr bo'lsa, do'stlarini yaxshilab siylashga imkon topilganiga xursand bo'lib, may ichishga tushibdi. O'n-o'n besh qadah may ichgach, uning kayfi oshib qolibdi va uxlagani yotibdi.

Odamxo'r Ogrning yettita qizi bo'lib, ular hali bola ekan. Qizlar otalari kabi faqat yangi go'sht

bilan ovqatlanganliklaridan sog'lom o'sayotgan ekanlar. Lekin ularning ko'zлari kichik va kulrang, og'izлari katta, burunлari qushlarning tumshug'i shaklida va tishлari so'yloq ekan. Ular hali butkul odamxo'r bo'lib yetilmagan ekan. O'sha oqshom ona qizlarini barvaqt yotqizgan ekan. Qizlarning boshlariga oltin toj kiygizilgan bo'lib, ular kattakon karavot ustida yonma-yon yotishar ekan. Qizlarning yotoqxonasida yana bir karavot bo'lib, odamxo'ming xotini aka-ukalarni o'shaning ustiga yotqizib, o'zi chiqib ketibdi.

Yarim tunda Jimjiloqvoy sekin o'midan turib, Ogrning qizлari kiyib olgan oltin tojlarni yechib akalariga, akalarining qalpoqlarini esa qizlarga kiygizib qo'yibdi. Jimjiloqvoy odamxo'r Ogrning niyati bузilib, kechasining o'zidayoq bolalarni qatl qilmоqchi bo'lsa, qorong'ida paypaslab ish ko'rishi ni taxmin qilib, shu ishni qilibdi. Hamma narsa Jimjiloqvoy o'ylagandek bo'lib chiqibdi. Yarim kechada odamxo'r Ogr o'midan turibdi va bugungi ishni ertaga qo'yganiga afsus qilib, qo'lida kattakon pichoq bilan bolalar uxlayotgan xonaga kirib kelibdi.

Ogr asta o'tinchining bolalari uxlayotgan karavot oldiga kelib, Jimjiloqvoy va akalarining boshlarini tanlay boshlabdi hamda ularga oltin toj kiygizib qo'yilganligini bilib: «Kecha mayni ko'proq ichib yuboribman, shekilli. Oz bo'lmasa, o'z qizlarimni bo'g'izlab qo'yardim», – deya o'yabdi. Keyin u qizлari uxlayotgan karavotning oldiga kelibdi va qorong'ida ularning boshlaridagi qalpoqlarini ushlab ko'rib: «Shu yerdamisizlar, shovvozlar! Qani endi,

ishga», – debdi. Shu so‘zlarni ayta solib, u qizlarini birin-ketin pichoqdan o‘tkazibdi va qilgan ishidan mamnun bo‘lib, uxlagani yotibdi.

Ogrning xurraq tortayotganini eshitgan zahoti, Jimjiloqvoy akalarini uyg‘otibdi va tez kiyimlarin-gizni kiyib orqamdan yuringlar debdi. Aka-ukalar sekingga bog‘ga chiqishibdi va devordan oshib, qochib qolishibdi. Ular dahshatdan dag‘-dag‘ titrab, tun bo‘yi, qayoqqa ketayotganliklarini bilmasalarda, yuguraveribdilar.

Odamxo‘r Ogr uyqudan uyg‘onib, xotiniga debdi: «Borib, kechagi shovvozlani uyg‘ot». Ayol erining muloyimlik bilan gapirayotganiga hayron bo‘libdi. U bolalar yotgan xonaga ko‘tarilibdi va qizlarning qonga belanib yotganliklarini ko‘rib, hayrat va dahshatdan hushidan ketib qolibdi. Xotinining hayallab qolganidan taajjubga tushgan Ogr ham bolalar yotgan xonaga ko‘tarilibdi. U o‘zi qilib qo‘ygan ishni ko‘rib, dahshatga tushibdi: «Nimalar qilib qo‘ydim, – deb qichqiribdi u. – Yaramaslar, sizlarni hozirning o‘zida shunday jazolayki!..»

Keyin Ogr xotinining yuziga suv sepib, uni o‘ziga keltiribdi va «Menga darrov tez yurar etiklarimni topib ber», – debdi. Tezyurar etiklarni kiyib olgan odamxo‘r chor atrofda izg‘ib, bolalarni qidi-ribdi. Aka-ukalarning uylariga yetib olishlariga yuz qadamcha qolganda Ogr ularning izlariga tushib olibdi. Jimjiloqvoy to‘satdan qoya bag‘ridagi kichkina kavakni ko‘rib qolibdi va akalari bilan birga o‘sha yerga yashirinibdi. Odamxo‘r Ogr ham shu yerga kelganida qattiq charchabdi (tezyurar etiklarni kiygan odam tez charchab qolar ekan) va

bolalar yashiringan qoyaning yon bag'riga o'tirib, hordiq chiqarmoqchi bo'libdi.

Ko'p vaqt o'tmay Ogrning qattiq xurragi eshitila boshlabdi. Bechora bolalar odamxo'r boshlarida pichoq o'ynatib turganida qanday qo'rqqan bo'lsalar, undan ham ko'proq qo'rqib ketibdilar. Faqat Jimjiloqvoygina unchalik qo'rqmabdi. U akalariga odamxo'ming uqlab yotganidan foydalaniq qolishni va uylari tomon imkoni boricha tezroq yugurishni maslahat beribdi. Akalari kenjatoyning maslahatiga amal qilib uylariga yetib olibdilar.

Jimjiloqvoy bo'lsa uqlab yotgan odamxo'r Ogrning oyoqlaridan tezyurar etiklarni sekingina yechib, kiyib olibdi. To'g'ri, etiklar haddan ziyod keng va katta ekan. Lekin ular sehrli bo'lganligi sababli, birpasda kichrayib, Jimjiloqvoyna lop-loyiq kelib qolibdi.

Ba'zilarning aytishlaricha, Ogr bundan buyon hech qanday bolaning orqasidan quvlay olmasin degan niyatda uning tezyurar etiklarini yechib olgan emish. O'sha odamlar, biz o'tinchining uyida bo'ldik, yedik, ichdik va Jimjiloqvoyning barcha sarguzashtlaridan xabardormiz, deydilar. Jimjiloqvoyning tez yurar etiklarini kiyib olib, qirolning oldiga boribdi va unga choparlikka ishga yollanibdi. Jimjiloqvoyning yordamida qirol endi o'z qo'shinlarni bemalol boshqaradigan, mamlakatning istagan burchagidagi ahvoldan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'libdi. Bundan tashqari Jimjiloqvoyning oshiq-ma'shuqlarning ham xat-xabarlarini yetkazib berarkan. Xullas, uning ishlari ko'p, xizmat haqi ham shunga yarasha ekan. U ota-onasining va akalarining turmushlarini farovon qilish uchun bar-

cha shart-sharoitni muhayyo qilibdi. Otasiga yangi ustaxona ochib beribdi, akalarini o'qimishli qilib, yuqori lavozimlar olib beribdi. O'zi bo'lsa bir umr qiroqla sidqidildan xizmat qilibdi.

## QIZIL SHAPKACHA

**B**ir bor ekan, bir yo'q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan: u dunyoda tengi yo'q, juda yoqimtoy qiz ekan. Oyisi uni jonidan ham yaxshi ko'rар ekan, buvisi bo'lsa undan ham yaxshi ko'rар ekan. Buvisi nevarasining tug'ilgan kuni munosabati bilan qizchaga bitta qizil shapkacha sovg'a qilibdi. O'shandan beri qizcha qayoqqa borsa, shu chiroqli, yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Shuning uchun qo'ni-qo'shnilar uni ko'rganda:

– Ana, Qizil Shapkacha kelyapti! – der ekanlar.

Bir kuni oyisi somsa pishirib, qizchaga aytibdi:

– Qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog'ni buvingga olib borgin, eson-omonligini bilib kelgin. Qizil Shapkacha kiyinib, buvisini ko'rgani narigi qishloqqa ketibdi. U o'rmondan o'tayotsa, oldidan bir Bo'ri chiqib qolibdi. Bo'ri Qizil Shapkachani yamlab yuborgisi kelibdi-yu, lekin botinolmabdi, chunki shu yaqin orada o'tinchilar daraxt kesib yurar, boltalarining taraq-turuq ovozi eshitilib turar ekan. Bo'ri qizdan:

– Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan? – deb so'rabdi.

Qizil Shapkacha bo'lsa, o'rmonda to'xtab, Bo'ri bilan gaplashishning qanday qo'rqinchli ekanini

bilmas ekan. Shuning uchun ham u Bo'ri bilan salomlashibdi-da, keyin:

- Buvimni ko'rgani ketyapman, buvimga mana bu somsalar bilan kuvachada yog' olib boryapman,
- debdi.

- Buvningning uyi uzoqdam? - deb so'rabdi Bo'ri.

- Ha, ancha uzoqda, - deb javob beribdi Qizil Shapkacha,

- Tegirmon orqasidagi qishloq bor-u, hov ana, eng chekkadagi uyni ko'ryapsanmi - o'sha.

- Yaxshi, - debdi Bo'ri, - men ham buvingni ko'rib kelaman. Manavi yo'ldan boraman, sen bo'lsang anavi yo'ldan bor. Ko'ramiz, kim oldin borarkan.

Bo'ri eng yaqin yo'ldan g'izillab chopib ketibdi. Qizil Shapkacha bo'lsa, eng uzoq yo'ldan ketibdi. Qizcha yo'lma-yo'l to'xtab, gullar teribdi, guldasta yasabdi. Qizil Shapkacha hali tegirmon yo'liga yetmagan ekan, Bo'ri kampirning uyiga yetib kelib, eshikni taqillatibdi.

- Kim? - deb so'rabdi kampir.

- Men nevarangiz Qizil Shapkachaman, - deb javob beribdi. Bo'ri, ovozini ingichka qilib. - Siznikiiga mehmon bo'lib keldim, somsa bilan kuvachada yog' olib keldim.

Kampir bu vaqt to'shakda kasal bo'lib yotgan ekan. U chindan ham Qizil Shapkacha kelgandir deb o'ylab, shunday debdi:

- Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi!

Bo'ri ipni tortibdi - eshik ochilibdi. Bo'ri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi.

Bo'ri judayam och ekan, negaki u uch kundan beri ovqat yemagan ekan-da. Keyin Bo'ri eshikni yopib, kampirning to'shagiga kirib yotibdi-da, Qizil Shapkachani kuta boshlabdi. Tezda Qizil Shapkacha kelib, eshikni taqillatibdi.

- Kim? - deb so'rabdi Bo'ri.

Qizil Shapkacha Bo'rining xunuk ovozini eshitib, avval qo'rqibdi, keyin: «Buvim tumov-pumov bo'lgandir», - deb o'ylab, javob beribdi:

- Men nevarangiz Qizil Shapkachaman. Sizga somsa bilan kuvachada yog' olib keldim.

Bo'ri yo'talib olib, ingichka ovoz bilan:

- Ipni tort, jonginam, eshik ochiladi, - debdi.

Qizil Shapkacha ipni tortgan ekan eshik ochilibdi.

Qizcha uyga kiribdi. Bo'ri bo'lsa ko'rpagina burkanib olib debdi:

- Somsani stolga, kuvachani tokchaga qo'y, o'zing yonimga kelib yot! Juda charchagandirsan?

Qizil Shapkacha bo'ri bilan yonma-yon yotib, undan so'rabdi:

- Voy, buvijon, qo'llaringiz buncha uzun?

- Seni mahkamroq quchoqlash uchun, jonginam!

- Buvijon, oyoqlaringiz buncha katta?

- Tezroq chopish uchun, jonginam!

- Buvijon, quloqlaringiz buncha katta?

- Yaxshiroq eshitish uchun, jonginam!

- Buvijon, ko'zlariningiz buncha katta?

- Seni yaxshiroq ko'rish uchun, jonginam!

- Buvijon, tishlaringiz buncha katta?

- Seni tezroq yeb qo'yish uchun, jonginam!

Qizil Shapkachaning dod-voylashiga qaramay, ochnko'z Bo'ri uni shippagi va qizil shapkasi bilan

qo'shib yutib yuboribdi. Baxtni qarangki, shu vaqt uy yonidan o'tinchilar o'tib qolishibdi. Ular shovqin-sur-onni eshitib, uyga bostirib kiribdilar va bo'rini o'ldiribdilar. Keyin uning qornini yorsalar, ichidan Qizil Shapkacha bilan buvisi eson-omon chiqishibdi.

## ETIK KIYGAN MUSHUK

**B**ir tegirmونching uchta o'g'li bo'lган ekan. Dunyodan o'tayotib o'g'illariga bor bisoti – tegirmon, eshak va mushukni qoldiribdi. To'ng'ich o'g'il tegirmонни, o'rtancha o'g'il eshak-ni olibdi. Kenja o'g'ilga mushuk tegibdi.

Bechora kenja o'g'il merosdan arzimas narsa tekkaniga xafa bo'lib yig'labdi. Mushuk unga:

– Xafa bo'lманг, xo'jayin. Menga bir qop topib, ustaga bir juft etik tikishga buyurtma bering. Nimaga qodirligimni ko'rasiz, – debdi.

O'ziga kerakli barcha narsalarni olgan mushuk tezda kiyinib, qopni yelkasiga tashlab, qalin o'rmonning quyonlar ko'p joyiga yo'l olibdi. Qopiga sabzi bilan karam solib olibdi.

U qopni ochiq joyda qoldirib, birorta ahmoq quyon qopga tushib qolar, degan umidda butalar orqasiga yashirinib olibdi.

Uzoq kutishga hojat qolmabdi. Bir quyoncha qopga kirishi bilan butalar ortidan otilib chiqib, qopning og'zidagi ipni tortib berkitibdi.

O'ljani ko'tarib to'g'ri qiroл saroyiga jo'nabdi. Mushukni qiroлning xobxonasiга olib kirishganida, u hazrati oliylariga ta'zim qilib:

– Hazrati oliylari, mana bu markiz de Karabasning (mushuk o‘z xo‘jayiniga shunday ism o‘ylab topibdi) o‘rmonidan tutilgan quyon. Xo‘jayinim ushbu arzimas tuhfani sizga berib yubordi, – debdi.

– Xo‘jayiningga tashakkurimni ayt, – debdi qirrol, – unga yana bu sovg‘a menga huzur baxsh etganini ham yetkaz.

Oradan bir necha kun o‘tgach, mushuk dalaga borib, u-bu narsa solingan qopini qoldiribdi. Bu safar tuzoqqa ikkita kaklik tushibdi. Mushuk bu gal ham ularni markiz de Karabasning nomidan qiroqla olib boribdi.

Qirol sovg‘ani xushnudlik bilan qabul qilib olibdi. Shu zayl bir necha oy o‘tibdi. Mushuk: «Saxovatli markiz de Karabas berib yubordi», – deb qiroqla yana har xil o‘ljalarni yetkazibdi.

Kunlardan bir kuni mushuk qirolning yolg‘iz qizi – go‘zal malika bilan faytonda daryo sohili bo‘ylab sayrga chiqmoqchi ekanidan xabar topibdi. U o‘z xo‘jayini oldiga borib, unga:

– Agar mening aytganlarimni bajarsangiz, baxtingizni qo‘lga kiritasiz. Hammasi faqat o‘zingizga bog‘liq, hozir daryoning men ko‘rsatgan joyiga borib cho‘milib turasiz. Qolganini menga qo‘yib bering, – debdi.

Yigitcha nima uchun cho‘milishi kerakligini tushunmasa ham, mushuk nima degan bo‘lsa, bajaribdi. U cho‘milayotgan paytda mushuk uning uniqqan kiyim-kechagini katta tosh ostiga yashirib qo‘yibdi. Tez orada daryo sohilidan qirolning faytoni o‘ta boshlabdi.

Mushuk faytonga tashlanib, ovozi boricha:

– Bu yoqqa, bu yoqqa kelinglar! Cho'kayotgan markiz de Karabasga yordam beringlar! – deb baqiraveribdi. Qirol qichqiriqni eshitib fayton eshigini qiya ochibdi-da, o'ziga bir necha bor sovg'a sifatida o'ljalar olib kelgan mushukni ko'ribdi va darhol xizmatkorini markiz de Karabasni qutqarishga jo'natibdi.

Bu orada mushuk qironga bechora xo'jayini cho'milayotgan paytda uning barcha kiyimlarini o'g'irlab ketishganini so'zlab beribdi.

Qirol markiz de Karabas uchun saroydan zudlik bilan eng yaxshi kiyimboshlarni keltirishlarini buyuribdi. Yosh, kelishgan va ko'rkan markiz bejirim kiyimlarni kiygach, yanada chiroyli bo'lib ketibdi. Unga ko'zi tushgan malikaning hushi boshidan uchib, yigitni yaxshi ko'rib qolibdi. Markiz qironga ham yoqib qolibdi. Qirol yigitchani faytonda birgalikda sayr qilishga taklif etibdi. Rejası muvaffaqiyatli amalga oshayotganidan quvongan mushuk faytonning oldiga tushib yugurib ketibdi.

U yo'lda pichan o'rayotgan dehqonlami uchratibdi.

– Ey, yaxshi odamlar, – debdi u, – yugurganicha, qironga bu o'tloqlar markiz de Karabasniki demasangiz, yaxshilik kutmang.

Shu payt o'tloqqa qirolning faytoni yaqinlasibdi. Qirol uning derazasidan tashqariga qarab, dehqonlardan:

- Kimning o'tlog'ini o'rayapsizlar? – deb so'rabdi.
- Markiz de Karabasning!

Mushukning do'q-po'pisasidan qo'rqqan chalg'ichilar bir ovozdan shunday deb javob berishibdi.

– Markiz, o'tlog'ingiz haqiqatan ajoyib ekan! – debdi qirol.

– Ha, davlatpanoh, bu o'tloqdan har yili mo'l-kol pichan o'rib olamiz, – debdi markiz.

Mushuk bu payt dalada ishlayotgan o'roqchilarni ko'rib qolibdi.

U o'roqchilarga qirolning savoliga qanday javob berish lozimligini o'rgatibdi. Qirol dalaga yaqinlashib odamlardan barcha don-dun markiz de Karabasga tegishli ekanini eshitibdi.

Mushuk bo'lsa hamon faytonning oldiga tushgancha yugurib, uchraganlarga qirol so'rasha o'sha bir gap: ya'ni «Bu uy markiz de Karabasniki», «Bu tegirmon markiz de Karabasniki», «Bu bog' markiz de Karabasniki» deyishni tayinlab ketaveribdi.

Yosh markizning boyliklaridan hayratga tushgan qirolning unga bo'lgan hurmat-ehtiromi yanada oshibdi.

Nihoyat, mushuk ulkan badavlat odamxo'r yashaydigan baland qasrning darvozasiga yaqinlashibdi. Bu odamxo'r qirolning mulozimlari bilan faytonda yo'l yurib kelgan yerlarning haqiqiy egasi ekan. Ulkan odamxo'rning qudrati qanchalar ekanini oldindan bilgan mushuk qasr darvozasini taqillatibdi. Odamxo'r mushukning nimalarga qodirligini obdan chandalab, uni ichkariga kiritibdi. Hatto yo'l yurgansan deb dam olishga taklif qilibdi. Mushuk kursiga joylashib olib, odamxo'r bilan suhbatlasha boshlabdi.

– Meni, – deya gap boshlabdi ayyor mushuk, – sizni har qanday jonivor qiyofasiga kira oladi

deb ishontirishgan edi. Masalan, yo'lbars yoki sher qiyofasiga...

– Kira olaman! – debdi ulkan odamxo'r. – Qarab tur, hozirning o'zida sherga aylanib, buni isbotlayman!

Mushuk qarshisida sher turganini ko'rib, qo'rqqanidan etiklarini yechib, tarnov orqali tomga chiqib ketibdi.

Odamxo'r o'z qiyofasiga kirgandan keyingina pastga tushib, unga qo'rqqanimdan yuragim yorilishiga ozgina qoldi, debdi.

– Menga yana sizni hatto eng kichik jonivorlaraga ham aylana oladi deyishgan. Deylik, kalamush yoki sichqonga. To'g'risini aytsam, bunga hecham ishongim kelmayapti, – debdi mushuk.

O'ziga bino qo'ygan odamxo'r mushukning bu so'zlarini eshitib darhol sichqonga aylanibdi. Mushukka shu kerak ekan. U sichqonni quvib, bir deganda yetib olib tutibdi-da, chaynab yutib yuboribdi.

Bu vaqtda qirolning faytoni qasrga yaqinlashib qolgan ekan.

Mushuk yugurib borib qasr darvozasini ochibdi. Qirolni tavoze bilan kutib olibdi.

– Markiz de Karabasning qasriga xush kelibsiz, janobi oliylari! Qadamingizga hasanot! – debdi.

– Nima, markiz janoblarining qasri deyaptimi? – hayron bo'libdi qirol. – Bu g'aroyib qasr ham siznikimi, markiz? Qani, kirib ko'raylik-chi?

Markiz malikaning qo'lidan tutib, qoidaga ko'ra oldinda borayotgan qirolning ortidan yurib qasrga kirishibdi.

Uchovi kechki taomlar tayyorlab qo'yilgan serhasham, sarishta zalga qadam qo'yishibdi. O'sha kuni odamxo'r o'z qasriga mehmonlarni taklif etgan ekan, biroq ular qiroq qasrdaligidan xabar topishib, mehmondorchilikka kelishga jur'at etisholmabdi.

Hazrati oliylarini markiz de Karabasning mol-mulki, davlati lol qoldiribdi va go'zal malikani turmushga bersam, shunday yigitga beraman-da, deb xayol qilibdi.

U o'y lab ham o'tirmay, markizga yolg'iz qizining qo'lini so'rashni taklif etibdi. Markiz qiroqla bunday buyuk sharaf uchun minnatdorchilik bildirib, shu kuniyoq malikaga uylanibdi.

Etik kiygan mushuk esa mashhur amaldor bo'lib ketibdi. Shundan buyon u sichqonlarni faqat ko'ngil hushi uchungina ovlaydigan bo'libdi.

## ESHAK TERISI

**Q**adimda bir qiroq bo'lgan ekan. U shunday boy va qudratli ekanki, qo'shni qirollar uni izzat-hurmat qilibgina qolmay, undan qo'rqishar ham ekan.

Uning otxonasida son-sanoqsiz haqiqiy arab tulporlaridan tashqari ko'zga ko'rinarli joyda bitta oddiy eshak ham bo'larkan. Lekin eshak oddiy eshakka o'xshagini bilan uning boshqa xususiyati bor ekan: u har kuni ertalab tezak o'miga oltin tanga tashlarkan.

Otboqarlar uni terib olib qirolning xazinasiga topshirishar ekanlar.

Qirol o'zining dunyodagi eng aqlli va go'zal qirolichasi bilan ko'p yillardan buyon juda ahil va baxtiyor kun kechirar ekan. Qirol farzandsiz ekan, xudodan taxtimning vorisi bo'ladigan o'g'il ber, deb iltijo qilarkan. Lekin uzoq kutilgan farzand o'g'il emas, qiz bo'lsa ham xudoga shukrlar aytib, undan minnatdor bo'libdi.

Bir kuni qirolicha og'ir betob bo'lib qolibdi. Saroy tabiblari uni davolay olishmabdi.

Qirolicha o'zining umri tugab qolganini sezib, erini chaqiribdi:

– Janobi oliylari, mening so'nggi iltimosimni bajo keltiraman, deb va'da bering, – debdi unga qirolicha.

Agar bir kun kelib yana uylansangiz mendan chiroyliroq va aqlliyoq xotinga uylaning. Qirol alamdan ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib, sendan keyin hech qachon uylanmayman, deb turib olibdi. Lekin baribir qirolicha o'zi xohlaganday va'dasini olibdi. Qirol xotini o'lgandan keyin uzoq vaqt uni unutolmabdi. Lekin saroy amaldorlari, yana uylansangiz bo'lmaydi, deb turib olishibdi.

– Taxtingizga valiahd kerak, – deyishibdi ular.

Qirol marhum xotiniga bergen qasamiga ishora qilib, undan chiroyliroq va aqlliyoq xotinni hech qachon topishiga ko'zi yetmasligini aytibdi. Amaldorlar va vazirlar har kuni yangidan-yangi ayollarning rasmini olib kelib ko'rsatishibdi. Lekin ularning birontasi ham o'zining avvalgi xotiniday go'zal emas ekan.

Shundan keyin qirol daraxtlarga topinadigan qari sehrgar do'stiga murojaat qilibdi. U dunyo-

da marhum qirolichadan ham go'zallikda, ham aqlda ustun keladigan bitta malika bor. Bu ham bo'lsa, o'z qizingiz, debdi. Ayyor sehrgar qirolni o'z qiziga uylansa yaxshi bo'ladi, deb ishontiribdi. Sehr qirolning aqlini butunlay teskari qilib tashlabdi. Shundan keyin qirol xudoning yo'liga qarshi borib o'z qiziga uylanmoqchi ekanligini e'lon qilibdi. U xotiniga bergen va'dasini xuddi shunday yo'l bilan amalga oshirmoqchi bo'libdi.

Malika otasining gapini eshitib hushidan ketib qolishiga bir bahya qolibdi. U otasining oyog'iga tashlanib, bunday yomonxayoldan voz kechishini yolvorib so'rabdi. Lekin qirol uning gapini eshitgisi ham kelmabdi.

Shundan keyin malika maslahat so'rab cho'qintirgan onasi Nastarin parining oldiga bormoqchi bo'libdi.

Shu tundayoq malika parining uyiga borish yo'lini biladigan katta qo'yni aravaga qo'shib, eson-omon yetib boribdi.

— Qizginam, — debdi cho'qintirgan onasi malikaga. — O'z otasiga erga tegish eng yomon gunoh. Agar mening maslahatimga ko'nsang bundan qutulasan. Qirolga aytginki, uchta shartimni bajarsang senga turmushga chiqaman, degin. Shart shunday: osmon, oy va quyosh rangida uchta ko'ylik tikib bersin. Qirol har qancha qudratli bo'lsa ham, buning uddasidan chiqolmaydi.

Ertasiga malika o'zining istagini otasiga aytibdi. Qirol shu zahoti eng yaxshi tikuvchilarni chaqiribdi.

Oradan uch kun o'tgandan keyin shoyi-kimxoblar dan oltin ip bilan tikilgan, qimmatbaho toshlar

shodasi qadalgan uch xil ko'yak tayyor bo'libdi. Malika yana g'amga botibdi.

Shunda Nastarin pari malikaga, har kuni tezak o'mniga oltin tanga tashlaydigan sevimli eshagini terisini so'ragin, deb maslahat beribdi. Pari qirol o'lsa ham eshagidan ayrilmaydi, deb o'ylagan ekan. Aksincha, u darrov eshagini o'ldirib terisini malikaga taqdim etibdi.

Shundan keyin sho'rlik qiz butun umidini uzibdi.

– Yig'lama, qizim, – debdi, Nastarin pari uning g'amtashvishdan ado bo'layotganini ko'rib. – Ablah qirol otangga turmushga chiqishdan xalos qiladigan bir yo'l bor. O'sha eshak terisiga o'ralib olgin-da, saroydan chiqib ket. Soqchilar bunday qo'rqninchli terining tagida malika borligiga shubha qilishmaydi. Butun kiyim-kechaklaring, bezak-taqinchoqlaringni bir qutichaga solib ol. Bu yog'ini o'zim bo'ynimga ola-man. Quticha qayerga borsang, yer ostidan yoningda yuraveradi. Mening sehrli tayoqchamni ol. Kiyim-kechaging zarur bo'lib qolganda uni yerga bir turtsang quticha yoningda hozir-u nozir bo'lib qolaveradi.

Malika xayrlasharkan parini o'pib minnatdorchilik bildiribdi. Shundan keyin hamma yog'iga kamindan qora kuya olib surtibdi. Iflos eshak terisini yopinib, hech kim sezmaydigan holga kelgach, saroydan chiqibdi.

Qirol malika g'oyib bo'lganini bilib, qidirib topish uchun askarlarni jo'natibdi. Lekin Nastarin pari uni qirolning iskovuchlari ko'ziga ko'rinnmaydigan qilib qo'yibdi.

Malika boshi oqqan tomonga qarab ketaveribdi. Odamlar unga rahmlari kelganidan ovqatlantirishib-

di. Lekin hech kim eshak terisida hamma yog'i iflos, odam qarab bo'lmaydigan holda bo'lganidan yotish uchun joy ham, ishlash uchun ish ham berishmabdi.

Kunlardan bir kuni kimdir qirollik uchun o'rdak va oqqushlar yetishtiradigan qishloqda uy egasi-ga kir yuvadigan, kurkaxona, cho'chqaxonalarini tozalovchi xizmatkor kerakligini aytib qolibdi. Malika boshpana topish uchun har qanday ishga ham rozi bo'lishga tayyor ekan.

Qishloqda katalakday joy berishibdi. U shu yerda uxlар, orqasidan masxara qilib kulib, bemaza so'zlar bilan so'kadigan boshqa xizmatchilardan berkinib olar ekan. Ustidagi iflos teriga qarab, uni Eshak teri deb chaqirar ekanlar. Malika ularning bunday haqoratlariga o'rgana olmabdi. Lekin bora-digan boshqa joyi, yoniga tushadigan hech kimi bo'limgani uchun ularning mazax qilishlariga chidashga majbur ekan.

Bir kuni malika o'rmondagi buloq bo'yida o'tirib qismatidan achchiq-achchiq yig'labdi. O'z aksini suvda ko'rib qolib qo'rqib ketibdi. Ustidagi iflos terini uloqtirib tashlabdi.

Keyin yuz-betini yuvibdi, yuzi yana oppoq, o'zi esa go'zal holga kelibdi.

Malika o'z hujrasiga qaytgandan keyin sehrli tayoqcha yordamida osmon rangidagi feruza ko'ylagini kiyib olibdi. U ko'zguga boqib o'z hus-niga o'zi qarab to'ymasmish.

Xuddi shu paytda qishloqqa ovdan qaytayotgan bir shahzoda kelib qolibdi. U tasodifan qulflog'lik hujrani ko'rib, eshik tirqishidan ichkariga mo'ra-

labdi. Shahzoda go'zallikda tengi yo'q qizni ko'rib, uni sevib qolibdi.

Shahzoda bu hujrada kim yashashini so'rab-surishtira boshlabdi. Unga ochlikdan o'lib qolmasligi uchun rahmlari kelib boshpana berishgan Eshak teri yashayotganini aytib berishibdi.

Shahzoda saroyga qaytgandan keyin notanish go'zal qizning hujrasiga kirmaganiga juda-juda afsuslanibdi. Ertaga, albatta, oldiga boraman, deb ahd qilib qo'yibdi.

Lekin shu kechasi uning harorati ko'tarilib, issig'i chiqib ketibdi.

– Onajon, – deb iltijo qilibdi shahzoda onasi qirolichaga. – Falon qishloqdagi Eshak teri degan qiz non yopib berishini xohlayman.

Qirolichaning buyrug'i bilan qishloqqa xizmatkor jo'natilibdi, xizmatkor malikaga non yopib berishini buyuribdi. Malika hujrasining eshigini yopib olib ishga kirishib ketibdi. Xamir qorayotib barmog'ida-gi nozik uzugi qo'lidan tushib, xamirga qorishib ketganini sezmay qolibdi. Non pishgandan keyin Eshak teri qirolichaning xizmatkoriga nonni olib chiqib beribdi.

Shahzoda nonni sindirib yeayotganda juda nafis ishlangan uzuk nonga ilashib og'ziga chiqibdi.

– Men mana shu uzuk kimning qo'liga to'g'ri kelsa, o'shang aylanaman, – deb ma'lum qilibdi u qiro bilan qirolichaga.

Shu kunning o'zidayoq qirollikdagi hamma qizlar saroyga taklif qilinibdi, uzuk qaysi qizning qo'liga to'g'ri kelsa, shahzoda o'shang aylanadi, deb e'lon qilishibdi. Birinchi bo'lib saroyga dunyo-

dagi hamma malikalar, ularning ketidan gersogin-yalar, markiza va baronessalar tashrif buyurishibdi. Shahzodaning shaxsan o'zi uzukni obro'li qizlarning qo'liga taqib ko'ribdi, lekin ularning bironatasiga ham uzuk to'g'ri kelmabdi.

Ulardan keyin boshqa go'zal qizlar kelishibdi, so'ngra tikuvchilar, saroy xizmatkorlari-yu, podachi qizlargacha kelishibdi. Lekin uzuk hech kimning qo'liga sig'mabdi.

– Siz menga non yopib bergen Eshak terini unutmadingizmi? – deb so'rabdi shahzoda.

– Hoziroq olib kelinglar! – deb buyruq beribdi qiro.

Eshak teri o'zining uzugi to'g'ri keladigan qizni qidirishayotganini bilib, quyosh rangidagi ko'ylagini kiyibdi, sochlarni yaxshilab tarabdi, keyin ustiga eshak terisini yopinib, saroya kirib boribdi.

Shahzoda uning eshak terisini yopinib olganini ko'rib hujra teshigidan ko'rgan o'sha qiz ekanligiga ishongisi kelmabdi. Lekin qizning ingichka barmog'iga shahzoda qiynalmasdan nozik uzukni taqib qo'yibdi.

Shunda malika ustidagi iflos terini tashlab yuborgan ekan nihoyatda go'zal qizga aylanib qolibdi. Shahzoda uning oldida tiz cho'kib, o'ziga turmushga chiqishini so'ray boshlabdi.

Shu zahoti shift ochilib, qirolning marmar to'shalgan saroyiga gullar bilan bezatilgan aravada Nastarin pari tushib kelibdi. U bor gapni aytib beribdi.

Shunday dabdabali to'y bo'libdiki, uning tafsilotini na bir ertakda aytib, na bir qog'ozda yozib

tamom qilib bo'lmasmish, shahzoda bilan malika-ning hech kim bilan ishi bo'lmabdi, chunki ular bir-biriga qarab diydorlariga hech ham to'ymas emish.

## **MUNDARIJA**

Zolushka. <i>S.Ismoilova tarjimasi .....</i>	3
Uyqudagi malika. <i>Sh.Minovarov tarjimasi.....</i>	13
Sehrgarlar. <i>Sh.Minovarov tarjimasi .....</i>	25
Kokildor Rike. <i>Sh.Minovarov tarjimasi.....</i>	28
Jimjiloqvoy. <i>Sh.Minovarov tarjimasi .....</i>	37
Qizil Shapkacha. <i>Sh.Minovarov tarjimasi .....</i>	47
Etik kiygan mushuk. <i>A.Akbar tarjimasi .....</i>	50
Eshak terisi. <i>T.Alimov tarjimasi.....</i>	55

*Adabiy-badiiy nashr*

SHARL PERRO

**ZOLUSHKA**

*Ertaklar*

Muharrir  
Madina MAHMUDOVA

Sahifalovchi  
Sunnat MUSAMEDOV

Badiiy muharrir  
Nigora UMARQULOVA

Texnik muharrir  
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 02.10.da berilgan.

Bosishga 2017-yil 21.09.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 2,0. Shartli bosma tabog'i 3,36.

Garnitura «Bookman Old Style». Gazeta qog'ozи.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 233/118.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MChJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – (78) 147-00-14; (78) 129-09-72;

Marketing bo'limi – (98) 128-78-43; (93) 397-10-87

faks –(71) 273-00-14;

e-mail: yangiasravlod@mail.ru veb-sayt: www.book.uz





...Zolushka juda ham xursand bo'lib ketib sehrgar tayinlagan topshiriqlarni butunlay esidan chiqarib qo'yibdi. U hali soat o'n bir ham bo'lмаган bo'lsa kerak, deb o'ylaganda, birdaniga soat yarim kechaga zang ura boshlabdi. U cho'chib tushibdi-da, o'qday otilib, qushday uchib qochib qolibdi. Shahzoda uning ketidan quvib yetolmabdi.

Zolushka juda shoshganligidan bir poy billur tuflichasini oyog'idan tushirib qo'yibdi. Shahzoda ehtiyotlik bilan tuflini yerdan olibdi...



YANGI ASR AVLODI



[www.book.uz](http://www.book.uz)  
Onlayn kitob do'koni

ISBN 978-9943-20-328-0



9 789943 203280